

**ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

ATAHANOVA SHAHLO ALAVITDINOVNA

**Elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublari
(Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida)**

5A220201–Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

p.f.n. Ganiyeva B.I.

Toshkent – 2014

Mundarija

Kirish.....	8
I bob. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari tahlili.....	14
1. Elektron kutubxonalarni shakllantirishda tashkiliy ta'minotning o'rni va ahamiyati.....	14
2. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan chet el mamlakatlarida elektron kutubxonalarning tashkiliy ta'minotini yaratishga qaratilgan ishlar tahlili	19
3. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yaratish texnologiyalari va uni ishlab chiqish masalalari.....	43
I bob bo'yicha xulosa.....	48
II bob. Elektron kutubxonaning tashkiliy ta'minotini shakllantirish.....	49
1. O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti.....	49
2. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarining elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti.....	55
3. Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida tashkiliy ta'minotning ahamiyati.....	72
II bob bo'yicha xulosa.....	74
III bob. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vosita sifatida...	76
1. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini yaratish algoritmlari.....	76

2.	Dasturiy vositaning funktsional tuzilishi va masalalar sxemasi.....	78
3.	Dasturiyvositadan foydalanish qo'llanmasi.....	82
	III bob bo'yicha xulosa.....	87
	Xulosa	88
	Adabiyotlarro'yxati	89
	Ilovalar	93

**ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO`MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet	Axborot telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasbiy ta'lim	Magistratura talabasi	Atahanova Shahlo Alavitdinovna
Kafedra	Axborot-kutubxona tizimlari	Ilmiy rahbar	Ganiyeva Barno Ilhomovna
O`quv yili	2012-2014	Mutaxassisligi	Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik

**ELEKTRON KUTUBXONA YARATISHNING TASHKILY TA'MINOTI,
SHAKL VA USLUBLARI**

(Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida)

mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz miqyosida elektron kutubxonalar yaratishga kirishilgan bo'lishiga qaramay, ularning rivojlanish darajasi oshishi uchun tashkiliy ta'minotni to'g'ri tashkil etilishi muhim sanaladi. Elektron kutubxonalarni shakllantirishda, rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishda uning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini ishlab chiqish, O'zbekistonda mavjud axborot-kutubxona muassasalari boshqaruvi faoliyatini yengillashtirish, kutubxona jarayonlarini tez va sifatli amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, xodimlarning ish o'rinlari, vazifalarini to'g'ri taqsimlash va kutubxona ishini samarali tashkil etish dolzarb muommolardan biri hisoblanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini ishlab chiqish, mamlakatimizda mavjud axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxona jarayonlarini tez va sifatli amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, xodimlarning ish o'rinlari, vazifalarini to'g'ri taqsimlash va kutubxona ishini samarali tashkil etishning yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat. Ishning asosiy vazifalari elektron kutubxona yaratish texnologiyalari va

tashkiliy aspektlari tahlilini amalga oshirish, elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti sxemasini shakllantirish, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini yaratish hamda dasturiy tashkiliy ta'minot dasturi vositasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Obyekti - axborot-kutubxona muassasalarida elektron kutubxonalar yaratish jarayoni. Predmeti- elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, shakl, uslub va vositalari, dasturlash tillari.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: Tizimli-struktur, tasnifiy, komponent tahlil, matematik statistika, dasturiy ta'minotlarni loyihalash va ma'lumotlar bazasini yaratish usullari.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Elektron kutubxona yaratish texnologiyalari va uning tashkiliy tuzilmalarini tahlil qilish, axborot-kutubxona muassasalarida elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minotini shakllantirish, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish, axborot-kutubxona muassasalari tashkiliy ta'minoti dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi: Ilmiy ish natijalaridan kutubxona jarayonlari va xodimlar faoliyatini hamda vazifalarini to'g'ri tashkil etishda foydalanish mumkin. Ishlab chiqilgan dasturiy vosita har bir axborot kutubxona muassasalari uchun mos keluvchi tashkiliy tuzilma sxemalarini tanlab olishga imkon yaratadi.

Ish tuzilishi va tarkibi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Tadqiqotning asosiy mazmuni respublika ilmiy to'plamlari va jurnallardagi uchta maqola va bitta tezisda aks etgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yaratish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Buning natijasida axborot-kutubxona ishini samarali yo'lga qo'yish mumkin.

Ilmiy rahbar

(imzo)

Magistratura talabasi

(imzo)

**THE STATE COMMITTEE FOR COMMUNICATION,
INFORMATIZATION AND TELECOMMUNICATION
TECHNOLOGIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Faculty	Faculty of professional training	Master	Atakhanova Shakhlo Alavitdinovna
Kafedra	Information-library systems	Science Supervisor	Ganiyeva Barno Ilhomovna
Academic year	2012-2014	Specialization	Informatization and library science

ANNOTATION OF MASTER DISSERTATION

Theme on

**METHODS AND FORMS OF ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF
CREATION ELECTRONIC LIBRARY**

(As a example electronic library creation of modern poets)

Actuality of the theme: Creation organizational structure of information library, to form its methods and methodologies, to build library process and tasks of staffs orderly, to organize information library process effectively is one of the actual tasks in the Republic of Uzbekistan.

Purpose and tasks of research: Create methods and methodologies of electronic library, to build library process and tasks of staffs orderly, to organize information library process effectively.

The main tasks is analyze the organizational aspects, to form organizational structure of creation electronic library, to create electronic library databases of modern poets and design organizational structure software.

Object and subject of research: Object- the creation process of electronic libraries in the information-library institutions.

Methods and methodology of research: systematic structural, detail analysis, mathematical statistics, designing software and methods of creation databases.

Scientific novelty of research results: Analyze the creation technology of electronic library and its organizational structure, to form organizational structure of creation electronic library in the information library institution, to create electronic library databases of modern poets, design organizational structure software of information library institution.

Practical results and application: The results of research can be used to build library process and tasks of staffs orderly. Created software gives opportunity to choose suitable organizational structure for information library institutions.

Structure of research: Dissertation consists introduction, three chapters, summary, the list of literature and appendix.

The main results of research: Three articles and a thesis published in the magazine Kutubxona.uz and Republican scientific conferences.

Brief generalized expression of summary and offers:

Methodology of creation organizational structure of electronic library has science and practical importance. As a result information library science can be formed effectively.

Science Supervisor

(signature)

Master

(signature)

KIRISH

Respublikamiz Prezidentining 2006-yil "Aholini kutubxona-axborot bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori [1] ijrosini ta'minlash borasida kutubxonachilik ishi sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Qarorda ko'zda tutilgan yangi tipdagi axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlarini (AKM, ARM) tashkil qilish, katta mablag' va vaqt talab qiladigan murakkab masala hisoblanadi. Ma'lumki, zamonaviy talablarga javob beradigan kutubxonada avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini (AKAT) yaratmasdan turib, qarorda ko'zda tutilgan vazifalarni to'liq bajarish mumkin emas. AKATning ta'minotlari (dasturiy, texnik, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik va kadrlar) orasidan bugungi kunda ko'pchilikning e'tiborida turgani bu tashkiliy ta'minotdir.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivojlanishi, uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyatning rivojlanishi esa fan va ta'limning rivojlanishiga bog'liqdir, fan va ta'limning rivojlanishi o'z navbatida, axborot resurslari hamda axborot qidirish, saqlash, uzatish, qabul qilish, qayta ishlash vositalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin: fan va ta'lim tizimini rivojlantirish uchun dastlab bu ikki sohaning asosiy axborot ta'minotini tashkil etuvchi kutubxonalar, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari faoliyatini takomillashtirish talab qilinadi.

2011 yil 23 fevralda qabul qilingan "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1487-sonli Qarori [3] esa sohada yangi sifat bosqichini boshlab berdi. Bu bosqichda mamlakatimizda 1815 ta elektron kutubxona zallari, 400000 dan ortiq elektron resurslar yaratish, barcha axborot-kutubxona muassasalarida aholi barcha qatlamlari, barcha turdagi foydalanuvchilarning maqsad va talabalriga mos ravishda axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning sifatini oshirish vazifasi

yuklandi. 2011 yil 13 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonun [2] esa axborot-kutubxona muassasalari, ularning foydalanuvchilari, axborot-kutubxona tizimlari, ularning turlari, yangi zamonaviy tushunchalar mustahkamlab berildi. Bu Qonun O'zbekiston kutubxonachilik ishi sohasidagi birinchi qonuniy hujjatdir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" [9] asarlarida aytilganidek, ya'ni ajdodlarimiz tafakkuri va daxosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassam etgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Buyuk tarixga ega xalqimizning ma'naviy xazinasini saqlash va kelajak avlodga yetkazish maqsadida axborot-kutubxona muassasalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida [10] bayon etilgan g'oyalar va axborot-kutubxona faoliyatiga, xalq ta'limi, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlariga oid hujjatlarda qamrab olingan masalalar elektron kutubxona yaratishda uning axborot, til, texnik, dasturiy va ayniqsa tashkiliy ta'minoti shakl va uslublarini ishlab chiqish yo'llari hamda muommolari yechimini hal etish dissertatsion ish sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi: Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta'lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog'liqdir.

Bu borada axborot kutubxona muassasalarining o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda elektron kutubxona, virtual kutubxona, masofadan (onlayn) xizmat ko'rsatish va axborot resurslarini yetkazib berish, korporativ tarmoqdan

ma'lumotlar ayirboshlash kabi tushunchalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Biroq, mamlakatimiz miqyosida elektron kutubxonalar yaratishga kirishilgan bo'lishiga qaramay, ularning rivojlanish darajasi tashkiliy ta'minotni to'g'ri tashkil etilishi muhim sanaladi. Elektron kutubxonalarni shakllantirishda, rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishda uning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini ishlab chiqish, O'zbekistonda mavjud axborot-kutubxona muassasalari boshqaruvi faoliyatini yengillashtirish, kutubxona jarayonlarini tez va sifatli amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, xodimlarning ish o'rinlari, vazifalarini to'g'ri taqsimlash va kutubxona ishini samarali tashkil etish dolzarb muommolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti Axborot-kutubxona muassasalarida elektron kutubxonalar yaratish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, shakl, uslub va vositalari, dasturlash tillari.

Ishning maqsadi va vazifalari: Elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini ishlab chiqish, mamlakatimizda mavjud axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxona jarayonlarini tez va sifatli amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, xodimlarning ish o'rinlari, vazifalarini to'g'ri taqsimlash va kutubxona ishini samarali tashkil etishning yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan chet el mamlakatlarida elektron kutubxonalarni shakllantirishda tashkiliy ta'minotning shakl va uslublarini ishlab chiqish masalalari tahlilini amalga oshirish;
- O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti shakl va uslublarini ishlab chiqish va shakllantirish hamda zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida tashkiliy ta'minotning ahamiyatini ko'rib chiqish;

- Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini yaratish algoritmlari, funktsional tuzilishi va masalalar sxemasi hamda ushbu dasturiy vositadan foydalanish qo'llanmasi ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, elektron kutubxonalar yaratishning tashkiliy ta'minotini tadqiq etish, shakl va uslublarini ishlab chiqish bugungi kunda axborot-kutubxona faoliyatidagi eng dolzarb masala hisoblanib, shu bilan birga istiqbolga yo'nalgan tashkiliy-texnologik xodisa bo'lib, agar:

- ✓ Elektron kutubxonalarni yaratishda ularning tashkiliy ta'minotining shakl va uslublarini o'rganilgan holda, shakllantirilib borilsa;
- ✓ Barcha axborot-kutubxona muassasalari uchun to'g'ri va aniq shakllantirilgan elektron kutubxona tashkiliy ta'minotining optimal metodikasi ishlab chiqilib, amalda qo'llanilsa, axborot-kutubxona faoliyatida elektron kutubxonalarni oldiga qo'yilgan maqsadni to'liq amalga oshirishda hal qiluvchi nuqtasi bo'lib xizmat qilishi, elektron kutubxonadan ratsional foydalanishni, xodimlar ishini to'g'ri tashkil etish va foydalanuvchilar ehtiyojini to'laqonlik bilan bajarish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Ishning o'rganilganlik darajasi: Bir qancha rivojlangan davlatlarda axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotining shakl va uslublarini ishlab chiqishda N.N.Shaburova [21], B.I.Petrovna, K.P.Savanur [20], John McGinty, Marco De Rosa [19], Brian Bunnett va Martin Helbertlar [18] tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, A.I.Zemskov, Ya.L.Shrayberglar [15] elektron kutubxonalar, ularni shakllantirish jarayonlari haqida, M.Raxmatullayev [11], U.F.Karimovlar [12] elektron kutubxonalar yaratish texnologiyasi, resurslaridan foydalanish, axborot-kutubxona muassasalarining avtomatlashtirilgan tizimi borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Biroq, aynan elektron kutubxonalar yaratish tashkiliy ta'minotining shakl va uslublarini ishlab chiqish, xususan, O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs

markazlarining elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minotini alohida monografik tarzda o'rganilmagan.

Tadqiqot uslubi va uslublari: Tizimli-struktur, tasnifiy, komponent tahlil, matematik statistika, dasturiy ta'minotlarni loyihalash va ma'lumotlar bazasini yaratish usullari.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati: Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik sohasida ilmiy faoliyat yurutuvchi mutaxassislar, magistrlar, talabalar uchun elektron kutubxonalar yaratishda tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarning nazariy jihatdan ishlab chiqilishidadir. Bugungi kunga qadar Respublikamizda, avtomatlashtirilgan kutubxona, elektron kutubxonalar tashkil etish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar M.Raxmatullayev, U.F.Karimovlar kabi zamondosh olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi: Tadqiqot ishida shuni ta'kidlash lozimki, maskur ishlab chiqilgan tashkiliy ta'minot, shakl va uslublardan amaliy qo'llanma sifatida elektron kutubxona yaratuvchi axborot-kutubxona muassasalari xodimlari, tegishli bo'limlar mutaxassislari, oliy o'quv yurtlari kafedralari elektron kutubxonasini shakllantirishda professor, o'qituvchi va magistrlar foydalanishlari mumkin. Ushbu ilmiy ish natijasida ishlab chiqilgan dasturiy vosita axborot kutubxona muassasalari uchun mos keluvchi tashkiliy tuzilma sxemalarini tanlab olishda dasturiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasi keng foydalanuvchilar ommasiga tarmoq orqali taqdim etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Elektron kutubxona yaratish texnologiyalari va uning tashkiliy tuzilmalarini tahlil qilish, axborot-kutubxona muassasalarida elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minotini shakllantirish, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish, axborot-kutubxona muassasalari tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini ishlab chiqish.

Ish tuzilishi va tarkibi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi *kirish, uch bob, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati* kabi qismlardan iborat.

Birinchi bob elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda elektron kutubxonalarni shakllantirishda tashkiliy ta'minotning o'rni va ahamiyati, O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan chet el mamlakatlarida elektron kutubxonalarning tashkiliy ta'minotini yaratishga qaratilgan ishlar, ularning tashkiliy ta'minotini yaratish texnologiyalari va ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Ikkinchi bob O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarining elektron kutubxonasini yaratishda tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida tashkiliy ta'minotning ahamiyati yoritib berilgan.

Uchinchi bob elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vosita sifatida ishlab chiqishda qaratilgan. Dasturiy vositani yaratish algoritmlari, funksional tuzilishi, masalalar sxemasi keltirilgan. Dasturiy vositadan foydalanuvchi (*user*) lar uchun foydalanish tartibini izohlab beruvchi qo'llanma ham keltiriladi.

Ilovalar o'rnida axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy tuzilmalari, dasturiy ta'minot bajaradigan asosiy vazifalar kodlari berilgan.

I bob. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari tahlili

1. Elektron kutubxonalarni shakllantirishda tashkiliy ta'minotning o'rni va ahamiyati

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta'lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog'liqdir. Bu maqsadga erishishda kutubxonalar faoliyatini yangi axborot texnologiyalari bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kutubxona faoliyatining asosiy jarayonlari: axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qidirish va iste'molchiga yetkazib berishga zamonaviy telekommunikatsiya kanallari vositasida elektron texnologiyalarni qo'llash samarali natijalar beradi.

XX asroxirlaridan yuz bera boshlagan "axborot inqilobi" kutubxonalar faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir natijasida kutubxonalar borgan sari ko'proq zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlanib, axborot resurslari markazlariga aylanib bormoqda. Kutubxonalarda xizmat ko'rsatish turlari ham keskin kengaydi: Internet tarmog'idan foydalanish, axborot-tahliliy materiallarni jamlab berish, kutubxona kataloglarining elektron ko'rinishi va to'liq matnli ma'lumotlar bazalarini kitobxonlarga taqdim etish shular jumlasidandir.

Kerakli axborotni olish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilganda manbalarni qidirib topish imkoniyati yuz martalab oshadi. Telekommunikatsiya vositalarini qo'llash esa axborot manbaining qanday masofada turganidan qat'iy nazar unga tezkorlik bilan ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bu yerda gap kutubxonalarda avtomatlashtirish va tashkiliy-texnika vositalarini qo'llash orqali ularni axborot resurslari markazlariga aylantirish haqida bormoqda. Bunday yangi turdagi kutubxonalar "elektron kutubxona", "virtual kutubxona" singari nomlar bilan atalmoqda.

Elektron kutubxona (electronic library) - avtomatlashtirilgan kutubxonaning mahsuli, u klassifikatsiyalash va axborotlarni

kodlashtirishning yagona tizimiga asoslangan bo'lib, kutubxonaning elektron katalogi, annotatsiyalar va to'liq matnli ma'lumotlar bazalari majmuidan iborat bo'ladi. Axborot-resurs markazining elektron kutubxonasi-axborot tizimi bo'lib, u ma'lum bir qoidalar asosidatizimiashtirilgan va tartiblashtirilgan elektron hujjattar fondiga (elektron katalog, to'liq matnli va mul'timediali ma'lumotlar bazalari va boshqalar) hamda axborotlarni saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturiy kompleksga ega bo'ladi.

Elektron kutubxona: umumiy va lokal foydalanish uchun mo'ljallangan, dasturiy texnologik vositalar kompleksi yordamida elektron hujjatlardan iborat tartiblashtirilgan fondni yaratish, foydalanish va saqlashni qo'llab-quvatlovchi axborot sistemasi.

Elektron kutubxona xarakteristikalari

Elektron kutubxona terminini turli insonlar turlicha ma'noda tushunadilar va bu faqatgina axborotlarning elektron shakli bo'lib qolmasdan, foydalanuvchilar jamiyatiga boy bo'lgan axborot resurslarini taqdim etuvchi raqamli axborotlarning tashkillashtirilgan tizimi hisoblanadi.

Elektron kutubxonalar o'zining xarakteristikasi [20] quyidagilar bilan bog'liq:

1. Elektron kutubxona ana'naviy bosma hamda (audio, video, grafika, animatsiya va b.) materiallari va elektron(raqamli) kutubxonalarning raqamli analogiga ega;
2. Elektron kutubxona axborotga egalik qiladi va boshqaradi. Nafaqat axborotni qidirib topishni balki axborotga kirishni ham ta'minlaydi;
3. Elektron kutubxona axborotga kirish uchun moslashtirilgan yagona tashkiliy ta'minotga ega;
4. Elektron kutubxona boshqa har qanday elektron kutubxona raqamli resurslariga kirishni ta'minlaydi;
5. Elektron kutubxona integrallashtirilgan katta hajmdagi axborot resurslarini tez va sifatli tarzda olishni ta'minlaydi;
6. Elektron kutubxona-katta hajmdagi va ko'p yillardan buyon saqlanib kelinayotgan kolleksiyalarga ega bo'lib, yaxshi tashkillashtiriladi va

boshqariladi, bir qancha formatlarni qo'llab quvvatlaydi va xafv yuzaga kelgan hollarda axborotni saqlab qolish ta'minlaydi;

7. Elektron kutubxona raqamli va bosma ko'rinishdagi resurslar o'rtasidagi farqlarga qaramay, an'anaviy kutubxonalar kabi barcha xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Axborot-kutubxona muassasalarining elektron kutubxonasini yaratishda quyidagi ta'minot butunligi talab etiladi:

Texnik ta'minot – kutubxona jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga mo'ljallangan texnik vositalar (shaxsiy kompyuterlar, orgtexnika, serverlar, printerlar va h.k.) majmui. Kutubxonaning texnik ta'minoti o'z ichiga texnik vositalar kompleksi (EHM, tashqi qurilmalar, terminallar, abonent punktlari, aloqa vositalari)ni oladi. Bu vositalar yordamida kutubxonada axborotlar yig'iladi, saqlanadi, qayta ishlanadi, qidiriladi va uzatiladi. Bulardan tashqari, adabiyotlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan texnik qurilmalar ham texnik ta'minot tarkibiga kiradi. Tashkiliy ta'minot – AK ning tashkiliy tuzilishi va lavozimlar uchun yo'riqnomalar majmuini o'z ichiga olgan va kutubxonani bir maromda ishlashi uchun lozim bo'lgan farmoyish va boshqa rasmiy hujjatlardir.

Uslubiy va huquqiy ta'minot –AK faoliyati uchun zarur uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy va me'yoriy hujjatlar majmuidir. AK ning bu ta'minoti faoliyatini huquqiy jihatdan belgilab beradi. Uslubiy va huquqiy ta'minot kutubxonalar va unga yaqin sohalar (axborot texnologiyalari, Internet, elektron resurslar, axborotga ega bo'lish huquqi va boshqalar)ni rivojlantirishga mo'ljallangan hukumat qarorlarini o'z ichiga oladi. Bu qonunlar jumlasiga: "Kutubxonalar to'g'risida"gi yoki "Kutubxonachilik ishi to'g'risida"gi qonun, "Majburiy nusxa to'g'risida"gi qonun, "Elektron kutubxonalarni rivojlantirish dasturi", "Ma'lumotlar bazasi va dasturlar bo'yicha mualliflik huquqi himoyasi to'g'risida"gi qonun va boshqalar kiradi. Dasturiy ta'minot – kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalar majmui. Bunga AK tizimini tashkil qiluvchi dasturlar kiradi, ya'ni axborot qidiruv tizimi, shtrix

kodlash tizimi. Iqtisodiy ta'minot – AKni moliyalashtiruvchi vositalar majmui. Bunga davlat tashkilotlaridan olinadigan mablag'lar, davlat dasturlaridan ajratiladigan mablag'lar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy ta'minotga xalqaro va mahalliy fondlarning grantlarini ham qo'shish mumkin.

Til ta'minoti (TT) - AK da ishlatiladigan til vositalari majmui. TT o'z ichiga atamalar, tushunchalar, yukori darajadagi tillarni, kodlashtirish tillarini va bibliografik axborot tavsifini oladi.

Axborot ta'minoti (AT) - axborot massivlari majmui, bibliografik axborotlar tasnifi va kodlashtirish, bibliografik formatlar, ma'lumotlar bazasi. Axborot va til ta'minotini bir -biridan ajratish mumkin emas. Bu ikkalasini axborot-til ta'minoti sifatida birlashtirish mumkin.

Kadrlarta'minoti - (KT) AK faoliyatini ta'minlovchi xodimlar majmui, kadrlar tarkibi malakasini turli ta'minot ko'rinishlari (texnik, axborot va dasturiy ta'minotlar) ga mos holda oshirib turishga mo'ljallangan tadbirlar. Kadrlar ta'minoti yana o'z ichiga kutubxonachilar tayyorlash va ularning malakalarini oshirish, AK dan foydalanishning zamonaviy usullarini o'qitishni xam oladi. Kadrlar ta'minoti tashkiliy ta'minotning ajralmas muxim qismidir. Kutubxonalarni avtomatlashtirish kutubxonachilar xizmat vazifalari yo'riqnomalariga jiddiy tuzatishlar kiritish va kadrlar malakasini yangi texnologiyalar asosida oshirishni talab qiladi. Kadrlar ta'minoti o'z xodimlaridan AK talablari va extiyojlari asosida ta'lim olishni taqozo qiladi.

Dasturiy ta'minot – kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalar majmui. Bunga AK tizimini tashkil qiluvchi dasturlar kiradi: axborot qidiruv tizimi, shtrix kodlash tizimi.

Iqtisodiy ta'minot - AK ni moliyalashtiruvchi vositalar majmui. Bunga davlat tashkilotlaridan olinadigan mablag'lar, davlat dasturlaridan ajratiladigan mablag'lar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy ta'minotga xalqaro va maxalliy fondlarning grantlari xam kiradi.

Tashkiliy ta'minot (TT) - AKning tashkiliy tuzilishi va lavozimlar uchun yo'riqnomalar majmuini o'z ichiga olgan va kutubxonani bir maromda ishlashi uchun lozim bo'lgan farmoyishlardir.

Kutubxona tashkiliy tuzilmasi undagi turli bo'limlarning faoliyatini (biri biri bilan aloqasini) tartibga soladi. Bu esa AK tashkiliy masalalarni samarali hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Kutubxonada avtomatlashtirish vositalari paydo bo'lishi bilan u yerda yangi (avtomatlashtirish, elektron kataloglashtirish, kompyuterlashtirilgan zallarda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish va h.k.) bo'limlar tashkil etiladi. Demak, kutubxona tashkiliy tarkibi o'zgaradi. Kutubxona eng zamonaviy texnika vositalariga ega bo'lishi, ammo mehnat to'g'ri tashkil etilmasa, bu texnika vositalarining asosiy funksiyalari bajarilmasligi mumkin. Bunday holda texnika vositalarining unumdorligi kutilganidan past bo'ladi.

Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotining aspektlari

Bir qancha rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlilining [19] natijalariga ko'ra, elektron kutubxonaning tashkiliy ta'minotini shakllantirishda quyidagi funksiyalarga ega bo'lishi lozim:

- Yangi infrastruktura;
- Ma'lumotlar bazasi
- Elektron resurslar fondi
- Avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi
- Axborot xafvsizligi
- Elektron katalog/Yig'ma katalog(OPAC)
- Hujjat boshqaruv tizimi
- Rasm/Grafika/Ovozli yozuvlar elektron fondi
- Statistika

2. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan chet el mamlakatlarida elektron kutubxonalarning tashkiliy ta'minotini yaratishga qaratilgan ishlar tahlili

XXI asrga kelib elektron kutubxonalar yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan rivojlantirishni davom ettirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 23 fevraldagi PQ-1487- sonli qarorini[3] bajarish yuzasidan Vazirlar mahkamasi qarori tarkibida elektron kutubxona to'g'risida namunaviy nizom[4] ishlab chiqilgan bo'lib, elektron kutubxonaning vazifalari va funksiyalari, axborot-kutubxona fondini shakllantirish, elektron kutubxonal faoliyatini tashkil etish va shu kabi umumiy qoidalar belgilab o'tilgan. Ushbu namunaviy nizomga ko'ra, elektron kutubxonaning asosiy vazifalari quyidagicha:

- Kitobxonlarga taqdim etish qiyin bo'lgan yoki cheklangan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- Faqat Elektron shaklda mavjud bo'lgan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- Katta hajmli axborot bilan ishlashda foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratish;
- Xizmat ko'rsatishning sifati va tezkorligini oshirish, foydalanuvchilarga elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari xizmatlari ro'yhatini kengaytirish;
- Kutubxona texnologiyalarini modernizatsiya qilish;
- Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini jahon makoniga integratsiyalash;
- Elektron axborot-kutubxona resurslarini uzoq muddat saqlash.

1991 yili Buyuk Britaniyada "Elektron kutubxona" dasturining ishga tushirilishi munosabati bilan unga dastlab "Kutubxona, elektron kutubxona

deyiladi, agarda uning fondidagi hujjatlarning katta qismi elektron shaklga o'tkazilgan bo'lsa" deganta'rifberilgan. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, to'liq avtomatlashtirilgan kutubxona "Elektron kutubxona" bo'lishi mumkin ekan.

AQSh Massachuset universitetidan Vil'yam Adams o'zining kitobida EKga "Servislarga mos axborotlarning boshqariladigan kolleksiyasi, bunda axborot raqamli shaklda saqlanadi va unga kirish tarmoq orqali amalga oshiriladi" deb ta'rif bergan.

Ya.L.Shrayberg o'zining [16] kitobida elektron kutubxonaga quyidagicha ta'rif beradi: "Elektron kutubxona, bu strukturalashtirish va kirishning umumiy ideologiyasi asosida birlashtirilgan lokal yoki global elektron resurslardir".

Bir necha yil avval AQSh kongressi kutubxonasi elektron kutubxona yaratish milliy dasturini amalga oshira boshladi. 1994 yildan boshlab, AQShda NSF, DARPA va NASA tashabbusi bilan Digital Libraries initiative (DLI) elektron kutubxonalar bo'yicha tadqiqot dasturi ish boshladi. Mazkur dastur rivojining 2-bosqichida, ya'ni 1998 yildan boshlab, u yagona tarmoqlararo dasturga birlashtirildi. Bu dasturga milliy tibbiyot kutubxonasi, AQSh statistika agentligi, Milliy gumanitar fond, AQSh milliy arxivi va boshqa federal agentliklar qo'shildi.

1995 yildan boshlab, Buyuk Britaniya milliy dasturi – ELIB amalga oshirildi. Bugungi kunda elektron kutubxonalar yaratish va ulardan foydalanish "Informatsion jamiyat texnologiyalari" dasturi doirasida KES dasturiga kiritilgan. AQSh da o'tgan asr 80-yillarda elektron kutubxonalar (EK) yaratish bo'yicha ish boshlangan bo'lsa, bu ishga Buyuk Britaniyada 1990 yil boshlarida kirishildi.

Rossiyada ham EK yaratish bo'yicha tajribalar yetarli. 1995 yildan boshlab elektron resurslar va ularning dasturiy-texnik ta'minotini yaratish bilan bog'liq loyihalar (jumladan, Internet orqali) amalga oshirila boshlandi.

Elektron kutubxonalar yaratishda AQSh dagi kutubxonalar va axborot markazlari ayniqsa, faollik ko'rsatmoqda. Loyihalar ichida salmoqlisi AQSh Kongressi kutubxonasi tomonidan amalga oshirilgan, 1995 yilda 15 ta yirik

universitet kutubxonasini birlashtirgan Milliy elektron kutubxonalar federatsiyasi (NDLF) loyihasi Milliy kutubxona va Amerika xotirasi loyihalari hisoblanadi. AQShda bu sohada olib borilayotgan ishlar boshqa mamlakatlarda ham shu yo‘nalishdagi tashabbuslar rivojiga turtki bo‘ldi.

O‘zbekistonda kutubxonalarni avtomatlashtirish ishlari 90-yillarning o‘rtalarida “Axborotlashtirish haqida” qonun va Milliy ilmiy-texnik axborotlar tarmog‘i yaratish bo‘yicha dastur qabul qilinishi bilan boshlandi. Kutubxonalarni avtomatlashtirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika davlat qo‘mitasi hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Shundan so‘ng elektron kutubxonalar va kutubxona konsorsiumlari yaratish bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yildi. Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida birinchi elektron kutubxona ishga tushirildi.

Bugungi kunga kelib, bir qancha rivojlangan mamlakatlarda milliy kutubxonalar zamonaviy tashkiliy ta’minotining holati uchun optimal elektron kutubxona tashkiliy ta’minot modellarini yaratish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Britaniya milliy kutubxonasi, Germaniya milliy kutubxonasi, Rossiya davlat kutubxonasi va Rossiya milliy kutubxonasi, AQSh Kongres kutubxonasi, Latviya milliy kutubxonasi o‘zining elektron kutubxonasini yaratishda tashkiliy ta’minotni, shakl va uslublarini ishlab chiqish va elektron kutubxonalarga uchun optimal tashkiliy ta’minotni qo‘llash borasida quyidagi bosqichma bosqich ishlar amalga oshirilmoqda:

- kutubxona elektron katalogiga kirishni va elektron axborot-resurslarini qidiruv tizimi orqali olishni mukammal darajada rivojlantirish;
- kutubxona foydalanuvchilari uchun ko‘pfunksiyali kutubxona xizmatlarini kengaytirish;
- axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda elektron kutubxona fondiga kirishni ta’minlash;
- kutubxona xizmatlarini modernizatsiyalash;
- kutubxona fondi hayotiy siklining boshqaruv tizimini rivojlantirish;

- kutubxonaning “aralash”- kompleks va texnik modelini yaratish.

Yuqorida sanab o'tilgan milliy kutubxonalar tashkiliy ta'minoti deyarli o'xshash bo'lib, quyidagi asosiy boshqaruv tarkibga ega:

- axborot tizimlarini boshqaruvi bo'limi rahbari;
- kutubxona fondlarini boshqaruvi bo'limi rahbari;
- moliya va rejalashtirish ishlari bo'limi rahbari;
- kitobxonlarga xizmat ko'rsatish va kutubxona fondini shakllantirish bo'limi rahbari;
- maxsus fondlarni boshqaruvi bo'limi rahbari;
- kutubxona tashkiliy ishlari bo'yicha rahbar;
- kutubxona tashqi aloqalari boshqaruvi rahbari;
- korporativ resurslarni boshqaruvi rahbari.

Boshqa milliy kutubxonalardan farqli ravishda Kongres kutubxonasi tashkiliy ta'minoti tarkibi quyidagi bo'limlar va boshqaruv tarkibdan iborat:

- AQSh Kongres so'rovlariga xizmat ko'rsatuvchi markaz direktori;
- Mualliflik huquqi ofisi direktori;
- Strategik initsiativ bo'yicha bo'lim direktori;
- Personalni boshqarish bo'yicha bo'lim menejeri;
- Ichki infrastrukturani shakllantirish bo'limi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlil natijalariga qo'shimcha tarzda, Kaliforniya elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minotini shakl va uslublarini shakllantirish hamda yaratishda amalga oshirilgan ishlarni ko'rish mumkin.

Kaliforniya elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Kaliforniya elektron(raqamli) kutubxonasiga 1997 yil Kaliforniya universitetida yangi texnologiyalarni tadbiq etgan holda raqamli axborotlarga kirishni va ularni chop etishni ta'minlash maqsadida asos solingan[29].Boshqa Kaliforniya universitet kutubxonalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish davomida jahondagi eng yirik ilmiy raqamli kutubxonalardan biriga aylandi

vafakultetlar, talabalar hamda tadqiqotchilar uchun axborotga kirish imkoniyatini yaratdi.

Kaliforniya universitet kutubxonalari bilan hamkorlik natijasida Kaliforniya elektron kutubxonasi o'z foydalanuvchilariga bosma va onlayn axborot resurslarni taqdim etish yo'lida avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimini ishlab chiqdi. Melvyl Catalog tizimi asosida mamlakatdagi eng katta hajmdagi onlayn katalogga ega bo'lgan elektron kutubxona tashkil etildi. Bu orqali Kaliforniya universitet kutubxonalari o'rtasida axborotlar va xizmatlarni ayirboshlash uchun sarlanadigan million dollarlik harajatlarni saqlab qolishga erishildi. Kaliforniya elektron kutubxonasi keng miqyosdagi madaniy boyliklarni, muzey va kutubxonalar xazinasini butun dunyoga taqdim etish maqsadida bir qancha kampuslar bilan birgalikda faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgikundakutubxonaraqamliilmiynashrlar, elektronarxivvaaxborotninghayotsikliorqaliraqamliaxborotlarnisaqlashkabixizmatlarbilanshug'ullanmoqda.

Elektron kutubxonaning eng muhim maqsadi bu Kaliforniya universitet kutubxonalariga xizmat qilishdir. Universitet kutubxona infrastrukturasi va kutubxona kampuslari orqali foydalanuvchilar axborot resurslariga kirishini ta'minlash esa yagona vazifasi hisoblanadi.

Kelajakda Kaliforniya elektron kutubxonasi ta'lim berish, o'rganish va tadqiqot ishi darajasini oshirish, axborot va jamiyat o'rtasida aloqani bog'lash yo'lida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda.

Maqsadi. Kaliforniya elektron kutubxonasining tashkiliy tuzilmasi (1-ilova) zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda shakllantirilgan bo'lib, Kaliforniya universitetlari uchun "global va mahalliy" raqamli kutubxona sifatida xizmat qiladi. Kaliforniya elektron kutubxonasi ilmiy axborotning raqamli davrini uch sferada ifodalaydi:

- Kirish(Access/ Доступ): Yangi darajada yanada kengroq imkoniyatlarga va xizmatlarga ega holda butun dunyo orqali yuqori sifatli ilmiy kolleksiyalarga kirishni ta'minlaydi;
- Formatlar:Kaliforniya elektron kutubxonasi barcha turdagi formatlarni qo'llab-quvvatlaydi va raqamli resurslar hamda kolleksiyalarni bir qancha xizmatlar orqali taqdim etadi;
- Masshtab: Hamkorlikda maksimal natijalarga erishish maqsadida Kaliforniya elektron kutubxonasi tarmoq xizmatlari darajasini oshiradi.

Ahamiyatli tomoni.Kaliforniya elektron kutubxonasi Kaliforniya universitetida ta'lim berish, o'rganish va tadqiqot ishini to'g'ri yo'naltirishni qo'llab quvvatlaydi va quyidagi yo'nalishlarni ko'zda tutadi:

- Innovatsiya: Foydalanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha kelib chiquvchi muommalarni ijodiy va analitik yo'l orqali yechimini ishlab chiqish elektronkutubxona tashkiliy ta'minoti innovatsiyasiga bog'liq;
- Hamkorlik: Ushbu soha yo'nalishida faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini olib boruvchi va tajriba almashish orqali kutubxona o'z samaradorligiga erishadi;
- Ochiqlik: Ochiqlik bu innovatsiya yaratishi va ishonch hosil qilishi orqali axborot resurslariga ochiq kirishni ta'minlashi, dasturiy vositalar yaratishi va biznes-loyihalar tuzish uchun yordam beradi;
- Umumiy kirish ruhsati(**Sharing**/Общийдоступ): Universitet va jamiyat qiziqishlari foydasi uchun yanada kengroq bilimlarni hamda axborotlarni tarqatish va taqdim etish;
- O'qitish: Kutubxona xodimlarining professional darajada rivojlanishi, fikrlar almashinuvi va yangi tajribalarni amalga oshirishni yuqori baholaydi.
- Sir saqlash: Elektron kutubxona foydalanuvchilarni axborotga bo'lgan intilishlarini turli xafvlardan himoya qiladi.

Milliykutubxonalartashkiliyta'minotisingarioilyta'limmuassasalarielektronkutubxonalaritashkiliyta'minotiningshaklvauuslublariniishlabchiqishdabirqanchaaspektlarinihisobgaolganholdashakllantiriladi. Univeritet elektron kutubxonalarini yaratishda ularning tashkiliy ta'minoti shakl va uslublarini shakllantirishni Chikago universiteti elektron kutubxonasi misolida ko'rib chiqamiz.

Chikago Universiteti elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Intelektual so'rovlarni qondirish markazi Chikago universitet kutubxonasi[30]jahondagi eng yuqori darajada rivojlanuvchi tadqiqot va ta'lim beruvchi muhit hisoblanib, ilm sohasidagi ta'lim va tadqiqot ishlarini, jamiyat va gumanitar bilimlarni, intellektual axborot resurslarini hamda dunyoning axborotga bo'lgan muammolarini hal etishda ko'maklashadi.

2012-2013 yillar oralig'ida Chikago universitet kutubxonasining axborot resurslari ko'rsatkichlari:

Hajmi:

- Shimoliy Amerikadagi 9-eng yirik tadqiqot kutubxonasi
- 11.9 million nomdagi bosma va elektron shakldagi resurslar
- 51,760 ming arxiv fondi va qo'lyozmalar
- 117.5 ming Universitet elektron arxiv fondi va tadqiqot ishi ma'lumotlar bazasi

Xizmatlar

- 306,445 nomdagi resurslar 14,499 individual ko'rinishda olingan;
- 26,258 ta hujjat skayner qilingan va yetkazib berilgan;
- 16,067 buyurtma so'rovlari bajarilgan;
- 9.1 millionto'liqmatnlimaqolalarso'rovigamufaqqiyatlijavobqaytarilgan;
- 31,813 tadqiqotchilar kutubxonadan foydalangan;
- 5,900 foydalanuvchi treyning vaseminarlarda ishtrok etgan.

Kolleksiyalari:

Kutubxona mashhur tadqiqot ishlari kolleksiyalarini kelajakda talabalar va xodimlarga taqdim etish maqsadida yig'adi va saqlaydi. Tadqiqot ishi darajasidagi

kolleksiyalar o'z ichiga gumanitar, jamiyat fanlari, biznes, fizika va biologiya, tibbiyot, texnologiya, huquq, matematika, statistika, komyuter ilmi kabi sohalarga tegishli bilimlar maydonini oladi.

Kutubxona maqsadi:

Kutubxona maqsadi universitet tadqiqotchilari, talabalari ehtiyojlarini ta'minlash yo'lida axborot resurslari va xizmatlarni keng ko'lamda taqdim etishdan iborat. Ushbu maqsadlarga amalga oshirishda:

- Tadqiqot ishi, ta'lim va bilim olish bilan shug'ullanuvchi foydalanuvchilarni tushunish;
- Tadqiqot ishi, ta'lim va bilim olishni ta'minlovchi kolleksiyalarni yig'ish va yaratish;
- Mahalliy va global tarmoq orqali axborot resurslariga kirish ruxsatini taqdim etish;
- Kutubxona axborot resurslarini va kolleksiyalarini uzoq muddat saqlanishi va foydalanuvchilarga xizmat qilishini ta'minlash;
- Tadqiqot ishi, ta'lim va bilim olish uchun fizik hamda virtual muhitni yaratish;
- Tadqiqot ishini yanada boyitish maqsadida boshqa universitetlar bilan hamkorlik qilish;
- Mahalliy, milliy, xalqaro kutubxona axborot resurslarini mukammallashtirish;
- Xodimlar o'rtasida intellektual salohiyatini oshirishni va innovatsion ruhini kengaytrishni rivojlantirish.

Ahamiyatli tomoni:

Kutubxona butun faoliyatini quyidagi yo'nalishlar orqali olib boradi:

Bilim

- Aqliy mehnat va o'qitish jarayoni butunligini ta'minlash;
- Ilmiy ishlarni rivojlantirishga xissa qo'shish;
- Bir vaqtning o'zida elektron kutubxonaning real va virtual muhitini taqdim etish;

- Intelektual axborot resurslarining mualliflari va egalari huquqlarini himoya qilish.

Xizmat

- Ijodiy-yaratuvchanlik, qulay va hamkorlikda ishlashni ta'minlovchi muhitni yaratish;
- Kutubxonaning har bir foydalanuvchisi yagona va muhim ekanligi;
- Kutubxona va uning foydalanuvchilari uchun yangi o'zgarishlarni taqdim etish;
- O'qish, ishlash, tadqiqot ishini olib boruvchilarni qulay va xafvsiz muhit bilan ta'minlash;

Sifat

- Mukammal darajada xizmat ko'rsatish;
- Individual o'sishni va tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichini oshirish;
- Xizmat ko'rsatish tezligi va sifat darajasini ta'minlash;

Haqqoniylik

- Foydalanuvchilar bilan adolatli va haqqoniy yondashuvda bo'lish;
- Kutubxona ishida adolat prinsiplarini va teng huquqiylikni yo'lga qo'yish;
- Axborotga ochiq kirishni ta'minlashda eng yuqori kasbiy salohiyatni taqdim etish;
- Har bir lavozim mas'uliyat jiddiy qabul qilgan holda bajarish.

Hurmat


- Har bir foydalanuvchiga teng va muloyim munosabatda bo'lish;
- Foydalanuvchilar fikr va g'oyalarini, taklif va etirozlarini qabul qilish;
- Foydalanuvchilar ehtiyojini qondirish;
- Foydalanuvchilarga qulay shart-sharoitlar muhitini yaratib berish.

Muloqat

- Barcha darajadagi ochiq va adolatli muloqatni yo'lga qo'yish;
- Kutubxona jahonda muhim joy egallashiga erishish;
- Foydalanuvchilar guruhi bilan teng muloqat olib borish;

- Kutubxona rivoji uchun xizmat qiluvchi axborotlar, qarorlar haqidagi fikrlar almashinuvini ta'minlash.

Chikago universiteti elektron kutubxonasining asosiy maqsadi va aniq belgilanib qo'yilgan yo'nalishlariga asoslangan holda, elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti zamonaviy axborot texnologiyalariga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib, foydalanuvchilar so'rovini to'liq bajarishga qaratilgan. Chikago elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti tarkibi mamlakatimizda mavjud oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari tashkiliy ta'minotidan o'zining bir nechta zamonaviy xizmat bo'limlari bilan farqlanadi. Ushbu xizmat bo'limlarini chuqur o'rgangan holda, ulardan oliy ta'lim muassasalari tarkibida faoliyat yurutuvchi axborot-resurs markazlari elektron kutubxona tashkiliy ta'minotining optimal shakl va uslublarini shakllantirishda qo'llash mumkin. Quyida Chikago universiteti elektron kutubxonasi tashkiliy tuzilmasi berilgan bo'lib, unda universitet elektron kutubxonasini yaratishda qatnashuvchi kutubxona rahbari, bo'limlar hamda yangi xizmatlar ko'rsatuvchi bo'lim osti bo'limlari keltirilgan(1.1-rasm).



1.1-rasm. Chikago universiteti elektron kutubxonasi tashkiliy tuzilmasi

Yuqorida keltirib o'tilgan milliy kutubxonalar tashkiliy ta'minotining shakl va uslublarini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini davom ettirish maqsadida Rossiya milliy kutubxonasi tashkiliy ta'minotini amaliy jihatdan ko'rib chiqamiz.

Rossiya milliy kutubxonasi

Rossiya milliy kutubxonasi[17] 1795 yil 27 mayda tashkil topgan bo'lib, imperator Yekaterina II buyrug'i asosida 1814 yil 14 yanvarda kitobxonlar uchun ochiq deb e'lon qilingan.

Rossiya milliy kutubxonasi Rossiya xalqining eng yirik tarixiy va madaniy xazinasini, milliy va dunyoviy madaniyatning qo'lyozma yodgorliklarini o'zida jamlagan bo'lib, jahondagi eng to'liq ko'rinishga ega Rossiya(Rossika) haqida va rus xalqiga oid kitoblar kolleksiyasini, barcha tillarda yig'ilgan noyob kolleksiyalarni, sa'nat nashrlarini, karotgrafik va nota-musiqali nashrlarni hamda zamonaviy formatdagi boshqa turli hujjatlarni saqlab kelmoqda. Axborot-resurs fondi 35 million nomdagi hujjatlarni tashkil qiladi.

Rossiya milliy kutubxonasi elektron axborot-resurslari bibliografik, faktografik, grafik, ovoqli, lisoniy va to'liq matnlar ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Har yili kutubxona taxminan 1,5 million foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadi, 12 milliondan ortiq bir nomdagi hujjatlarni va hujjatlardan nusxa olishni hamda foydalanuvchilarga taqdim etadi Shu bilan birgalohal holda va masofadan turib 6 milliondan ziyod foydalanuvchilar murojatni amalga oshiradi. Rossiya milliy kutubxonasi kutubxonachili ishi, bibliografiya, kitobatchilik sohasidagi yetakchi ilmiy- tadqiqot va ilmiy-metodik markazlardan biri hisoblanadi.

Kutubxona tashkiliy ta'minotini shakllantirish, mamlakatning axborot-kutubxona tizimi va milliy kutubxonaning asosiy rivojlanishda yuzaga keluvchi muammolarni yechish Ittifoq hamkorligida amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlikning muhim jihati umumrus va xalqaro korporativ loyihalarda ishtirok etishdan iborat.

Noyob qo'lyozmalar to'plamiga ega ekanligi, hujjatlarni bosma hamda ularning turli formatdagi ko'rinishlari va tarixiy-madaniy urf-odatlarini saqlab kelishi kutubxonani jahon milliy kutubxonalar qatoridan joy egallashi, beshta yirik kutubxonalar tarkibiga ya'ni Britaniya kutubxonasi, Fransiya milliy kutubxonasi, xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasi va tashkiloti(IFLA), milliy kutubxonalar direktorlari konferensiyasi(CDNL), Yevropa milliy kutubxonalar konferensiyasi(CENL), Yevropa ilmiy kutubxonalar konsortsiumi(CERL), Yevropa ilmiy kutubxonalar ligasi (LIBER)ga kirgani Rossiya milliy kutubxonasining ko'pchilik faoliyati natijasidir.

Kutubxonatashkiliy ta'minotiva boshqaruvi

Kutubxona tashkiliy ta'minotini va kutubxona boshqaruvi tuzilmasini rivojlantirish quyidagi faktorlarga asosan shakllantiriladi:

- Kutubxona barcha kutubxona bibliografik va axborot faoliyatining ilmiy-uslubiy kompleksini texnik va texnologik modernizatsiyalash;
- Asosiy resurslar(fondlar, axborot-ma'lumot apparati, xodimlar, moddiy resurs va jihozlar)ni har bir bino mutaxassislik sohasiga qarab joylashtirish va ko'chirib o'tkazish.

Rossiya milliy kutubxonasi rivojlangan chet el mamlakatlari milliy kutubxonalar tashkiliy ta'minotini o'rgangan va yangi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etgan holda tashkiliy tuzilmasining maqsad va vazifalarini belgilaydi:

- Asosiy kutubxona jarayonlarini bajarish ya'ni yangi kelgan adabiyotlarni butlash, ularni ilmiy qayta ishlash va kataloglashtirish, korporativ yig'ma elektron katalog yaratish, fondni saqlash va ulardan foydalanishni samarali boshqarish;
- Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish ya'ni o'quv zallar(maxsus fondlar va bo'limlarga qarashli sohaviy hamda universal) tizimi, rus va xalqaro kutubxona abonementi, axborot-bibliografik ma'lumot xizmati, tarmoq resurslaridan foydalanish asosida interaktiv xizmat ko'rsatish.

- Rossiya Federatsiyasi, xalqaro aloqalar va jamoat tashkilotlarida asosiy kutubxonachilik rivoji va faoliyati sohasini ilmiy va ilmiy-metodik tomondan ta'minlash;
- Tahririyat-nashriyot ishini, madaniyat va ta'lim yo'nalishini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Rossiya milliy kutubxonasi faoliyatining moliyaviy, iqtisodiy, yuridik, axborot va kadrlar ta'minotini ta'minlash;
- Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizim kompleksi yordamida xizmat ko'rsatish;
- Rossiya milliy kutubxonasi binodan foydalanish ya'ni injiner-texnik, moddiy-texnik, xo'jalik ishlari bo'yicha xizmat ko'rsatish, obyektlarni qo'riqlash va xafvsizligini ta'minlash.
- Tashkiliy ta'minot boshqaruvini optimallashtirish asosida administrative boshqaruvni yo'lga qo'yish.

Kutubxona rivojlanish jarayonida uning asosiy yo'nalishlari faoliyatini yoki texnologik funksiyalarini kengaytirish, xodimlar vazifasi va ularga qo'yiladigan talablar administrativ boshqaruv kabi tashkiliy boshqaruv hamda kutubxona tashkiliy ta'minotiga ta'sir ko'rsatadi.

Rossiya milliy kutubxonasi infrastrukturasida tarkibidagi butun kutubxona binolari va ulardagi bo'limlar vazifasi teng ravishda taqsimlanishi lozim:

- Iqtisodvamosoliyaboshqaruvi;
- Axborot texnologiyalar boshqaruvi;
- Kitob do'konisalonlari;
- Rossiya milliy kutubxonasi o'quv markazi;
- Tashqi aloqalar bo'limi;
- Kutubxona fondlarini konservatsiya qiluvchi Federal markaz (barcha binolarda nazorat funksiyalari ostida);
- Xafvsizlik xizmati (binoning barcha punktlarida);
- Mehnatni qo'riqlash xizmati (barcha binolarda nazorat funksiyalari ostida);

- Xo'jalik ishlari, texnik hamda muhandislik xizmati.

Rossiya milliy kutubxonasi tashkiliy faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida boshqaruv tuzilmasiga maxsus kompleks bo'limosti o'zgartirishlari kiritildi ya'ni:

- Avtomatlashtirilgan texnologiya boshqaruvi;
- Iqtisod va moliya boshqaruvi;
- Axborot xizmati boshqaruvi.

Ushbu bo'limostilarning asosiy vazifasi Rossiya milliy kutubxonasi faoliyatini tashkiliy hamda texnologik tomondan ta'minlashdan iborat.

Rossiya milliy kutubxona tashkiliy tuzilmasi ta'lim, axborot, fan va madaniyat va jamiyat rivojlanishida turli yutuqlarga erishishida katta ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Rossiya milliy kutubxonasining ishlab chiqilgan tashkiliy ta'minoti iyerarxik model ko'rinishida tuzilgan bo'lib(3-ilova), samaradorlikni, (bo'lim, sektor, guruh)lar butunligini va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydi. Jumladan, tashkiliy ta'minot milliy kutubxona axborot resurslarini va federal ilmiy-metodik hamda axborot markazining(kutubxona fondlarini saqlash bo'yicha milliy dastur doirasi, retrospektiv bibliografiya milliy dasturi, RUSMARC formati asosida yaratilgan tizim rivojining xizmat ko'rsatish va boshqalar) funksiyalarini bajaradi.

Rossiya milliy kutubxonasi tashkiliy ta'minotini shakllantirish jarayonlari tahlilidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkiliy ta'minotini yanada kengaytirish maqsadida, yangi bo'limlarni ochish, mavjud bo'limlar vazifasini o'zgartirish hamda zamonaviy shakl va uslublardan foydalanib ularni optimal shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkin.

Rossiya oliy ta'lim kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Jamiyatning global o'zgarishi, zamonaviy sotsial-iqtisodiy muommolarni kelib chiqishi barcha faoliyat sohalarida tahrorlanmas jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, axborotni saqlash, qayta ishlash, qidirish va jo'natish bilan bog'liq muhitga ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Bir vaqtning o'zida oliy ta'lim

kutubxonasida ta'lim va kutubxonachilik ishi birlashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, jahon axborot resurslaridan foydalanish uchun oliy ta'lim kutubxonalarida zamonaviy komyuter texnologiyalarni yangi imoniyatlarini integratsiya qilish, kutubxona axborot-resurslarini shakllantirish, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, kadrlar siyosatini to'g'ri olib borish, moddiy-texnik bazasi va boshqa vazifalarni bajarish talab etilsa, ikkinchi tomondan, ta'limni axborot ta'minoti bilan ta'minlash oliy ta'lim kutubxonasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir qancha qiyinchiliklarga qaramay, kutubxonaning yangi tashkiliy tizilmasi yaratish yangi sharoitlarga ega ta'lim jamiyatni qurish va ularga xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Bir nechta evolutsion tahlillar natijasiga ko'ra, tashqi muhitning tarixiy davrlari ta'sirida oliy ta'lim kutubxonasi tashkiliy ta'minoti va boshqaruv funksiyalari o'zgarib kelmoqda. Zamonaviy davr talablariga asosida kutubxona tashkiliy ta'minoti dinamik ravishda innovatsion sharoitlarga ega bo'lmoqda.

Ta'lim axborot muhiti va oliy ta'lim kutubxonasi tashkiliy prinsiplar evolutsiyasining jarayoni oliy ta'lim muassasasida[18] axborot almashishni va ta'lim jarayoni boshqaruvini amalga oshiradi. Ya'ni:

- Axborotxizmativaaxborotboshqaruvigabo'lganaxborotta'tminotievolutsiya sidanboshlaboliyta'limjarayonidaaxborotboshqaruvinitatbiqetish;
- Kutubxona sohasidagi ilmiy-metodik ta'limni kuchaytirish.

Oliy ta'lim kutubxonasida quyidagi kutubxona jarayonlari amalga oshiriladi ya'ni:

- Resurslarni shakllantirish;
- Hujjatlarni kataloglashtirish;
- Axborot-ma'lumot xizmati;
- Ta'lim jarayonida axborot bilan ta'minlash va boshqalar.

Iste'molchilari esa talabalar, professor o'qituvchilar tarkibi va virtual foydalanuvchilarni ash qiladi. Ta'lim darajasi va turli soha ixtisoslik yo'nalishlariga qarab oliy ta'lim kutubxona muassasasi xizmatlarni taqdim

etadi. Aynan shularning barchasi oliy ta'lim kutubxonasi tashkiliy ta'minotini yaratish asos hisoblanadi.

Matritsa ko'rinishidagi oliy ta'lim kutubxonasi uchun taqdim etiladigan tashkiliy ta'minot quyidagicha tashkil etilgan bo'lib, bular:

- Birinchidan, har bir kutubxona faoliyatini kutubxona va ta'lim tizimi tashkiliy qismida erishilgan natijalar ko'rsatgichlarini xisobga olgan holda amalga oshirish;
- Ikkinchidan, bugungi kunda kutubxona ma'lumotlar bazasini fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi axborotlar bilan ta'minlash jarayonini yo'lga qo'yish;
- Uchinchidan, tashqi muhit ta'siri ostida yangi o'zgartirishlar kiritish;
- To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasasida ta'lim berishni boshqarish va kooperatsiya hamda koordinatsiya uyg'unligi imkoniyatlarini tadqim etishdan iborat.


Oliy ta'lim kutubxonasining matritsa ko'rinishidagi tashkiliy ta'minoti axborot-kutubxona va ta'lim faoliyati bilan birgalikda yagona va qimmatli bilimlar, axborot va intellekt zanjirida aks etadi (1.2-rasm).

Kutubxonada amalga oshiriladigan loyihalar, dasturlar va faoliyatli qayta tashkil qilish bo'yicha alohida menedjer-xodimlar tayinlanga. Oliy ta'lim muassasasi kutubxonasida mavjud menedjerlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Axborot-analitik faoliyati bo'yicha menedjer;
- Sohaviy menedjer(fakultet va kafedralar bo'yicha);
- Funktsional menedjer(fondni shakllantirish, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha);
- Grant loyihalari bilan ishlovchi menedjer;
- Moliya va marketing menedjeri(elektron katalog yaratish, reklama va marketing faoliyati, universitet ilmiy va ommabop kutubxonalari bo'yicha).

Oliy ta'lim muassasasi kutubxonasi tashkiliy ta'minotining qayta yaratish orqali fan-ta'lim-madaniyat-axborot markazlari va Rossiya axborot jamiyatida axborot-madaniy rivojlanish istiqbollariga erishish mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra, Rossiya oliy ta'lim muassasalari elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti mamlakatimizdagi universitet va institutlar elektron kutubxona tashkiliy ta'minotiga emas, ko'proq milliy kutubxona tashkiliy ta'minotiga mos kelishini aytish mumkin. Quyidagi tashkiliy ta'minotning farqli tomoni shundaki, axborot-kutubxona faoliyatini olib boishda direktor o'rinbosarlari va bo'limlar o'rtasida tegishli bo'limlarga biriktirilgan menejerlik lavozimlari mavjudligidadir.



1.2-rasm. Rossiya oliy ta'lim elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti

O'zbekiston respublikasi axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotlari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-382-sonli qaroriga[1] ko'ra, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog'ini tashkil qilishni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi kutubxonalarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, OO'MTVning O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlarini tashkil qilishga qaratilgan (3-ilova). Mamlakatimizda o'z foydalanuvchilariga xizmat ko'rsatib kelayotgan axborot-kutubxona muassasalariga o'zining yo'nalishiga qarab, axborot-kutubxona metodik markazlariga birlashtiriladi. Barcha AKM va ARMLar Respublika axborot-kutubxonalari tizimiga faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo Kengashinazorati ostida faoliyat olib boradi (1.3-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi Qarori[1] O'zbekistonda yangi tipdagi axborot-resurs va axborot kutubxona markazlari tashkil qilishga keng yo'l ochgan bo'lsa, 2011 yil 13 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni[2] axborot kutubxona muassasalari infratuzilmasini zamon talablari asosida yangidan tashkil qilishga huquqiy asos yaratdi.

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari[1] quyidagilardan iborat:


- foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;
- foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

Yangidan tashkil qilingan axborot-resurs markazlari oldiga quyidagi vazifalar[1] qo'yilgan:

- ta'lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-ta'limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- shaxsning ma'naviy boy va barkamol ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o'zidagi va o'zidan uzoqdagi axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish asosida O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;
- axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
- boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;
- madaniy, ta'lim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda axborot kutubxona muassasalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalarning roli katta.



1.3-rasm. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari tarmog'i tuzilmasi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Milliy kutubxona - bu davlatning bosh kutubxonasi bo'lib, faqat birgina millatga tegishli bo'lmay, balki shu mamlakatning va xalqning milliy boyligi va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan kutubxonadir [14]. Milliy kutubxona xalqning madaniy rivojlanishida, milliy ma'naviy boylikni boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan baxramand bo'lish, madaniy aloqalarni kuchaytirish, milliy madaniyatning umumjahon madaniyat yutuqlari bilan doimo boyitib borishda nihoyatda katta rol o'ynaydi. Milliy kutubxonaning o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Davlatning siyosiy qiziqishlari, madaniy va ijtimoiy faoliyatiga bog'likligi;
2. Davlatga moddiy va ma'muriy ta'aluqliligi;
3. Umumdavlat faoliyatining xududiy chegaralanmaganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002- yil 20- fevraldagi № UP-3029 sonli "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga[5] muvofiq, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston respublikasi Davlat kutubxonasi va Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi negizida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot resurs markazining samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha bir qator tashkiliy-texnik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro tajribani va kutubxona foydalanuvchilarining, eng avvalo, yoshlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, o'quv zallarining ixtisoslashuvi va joylashishi takomillashtirildi. Ixtisoslashtirilgan elektron kutubxona zali, multimedia texnologiyalari zali tashkil etildi, barcha zallarda Internet tarmog'idan foydalanish ta'minlandi.

Ma'lumotlarni qidirish va olish uchun vizual va virtual axborot taqdim etgan holda interfaol axborot vositalari, aktiv panellar va monitorlar orqali kutubxona

foydalanuvchilarini xabardor qilishning zamonaviy tizimi o'rnatildi. Nashrlarni tezkor tarzda yetkazib beruvchi «telelift» tizimi joriy etildi.

A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining ilg'or axborot-kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan, eng avvalo, respublika yoshlarining intellektual va madaniy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun milliy va xorijiy axborot-kutubxona fondlaridan keng foydalanish imkonini beradigan, zamonaviy mutlaqo yangi, eng yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan axborot resurs markazi sifatidagi samarali faoliyati ta'minlanmoqda. Bunda kutubxonaning shakllantirilgan tashkiliy tuzilishi (4-ilova) muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakatimizda bugungi kunda o'zining tajribasiga asoslangan holda raqamli(elektron) kutubxonalar yaratishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan rivojlantirishni davom ettirish chora tadbirlari to'g'risida" 2011 yil 23 fevraldagi PQ-1487-sonli qarorida[3] belgilangan vazifalarni bajarishda mamlakatimizda axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish, axborot resurlar fondini hamda elektron resurslar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilar so'rovini to'laqonlik bilan bajarish bilan birgalikda ularga tez va sifatli xizmat ko'rsatish doirasida bir qancha yuqori natijalarga erishmoqda. Mamlakatimizda yetakchi kutubxonalardan biri Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bugungi kunga kelib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida foydalanuvchilar ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida yangi interaktiv xizmatlarni joriy etgan holda faoliyat olib bormoqda.

3. Elektron kutubxona tashkiliy tuzilmasini yaratish texnologiyalari va uni ishlab chiqish masalalari

Yuqorida ko'rib chiqilgan tahlillarga asoslangan holda, elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini yaratish texnologiyalari va uni ishlab chiqish masalalarini Texas universiteti kutubxonasi tashkiliy ta'minoti misolida ko'rib chiqish mumkin. Texas universiteti kutubxonasi tashkiliy ta'minotini qayta shakllantirishda kutubxona barcha xodimlarini hisobga olish orqali ishlab chiqilgan.

Texas universitet kutubxonasi[19]tashkiliy ta'minotini qayta yaratishda turli maqsadlarni hisobga olgan holda kutubxona barcha jarayonlarini to'g'ri shakllantirish masalasi qo'yilgan. Tashkiliy ta'minotni qayta yaratishda qo'yilgan vazifalar quyidalardan:

- Kutubxonakichikguruhlaridakutubxonaboshqaruvinibirlashtirish;
- Kutubxona boshqaruvi faoliyatining maqsadiga ko'ra strategik yo'nalishlarni belgilab olish;
- Funksional, aniq vasamarali tashkiliy ta'minotni yaratish;
- Kadrlar resurslaridan samarali foydalanish, oylish ish haqqini iqtisodiy jihatdan to'g'ri taqsimlash va bir vaqtning o'zida qobilyatli menedjerlarni ko'paytish uchun imkoniyatlar yaratib berish;
- Universitetning strategik priotet muhitida kutubxona tashkiliy ta'minotning aniq rolini belgilashdan iborat.

Ushbu loyiha “eng yuqori bosqich” kutubxonalar tashkiliy ta'minoti uchun yo'naltirilgan. Ushbu yuqori bosqichdagi tashkiliy ta'minot kutubxona bo'limlari va ofislari ya'ni bo'limosti xizmatlaridan tashkil topgan. Kutubxonalarda yaratiladigan yangi funksiyalarga ega tuzilma albatta kutubxona ixtisosligi bo'yicha va turli soha mutaxassislarini talab etadi. Masalan, kutubxonaga kelgan yangi adabiyotlarni klassifikatsiya qilish jarayonida turli kasb egalariga ehtiyoj seziladi.

Yuqori bosqichdagi kutubxona tashkiliy ta'minoti

Kutubxonaning yangi yaratilgan tashkiliy ta'minoti kutubxona dekani va biriktirilgan dekanni, ular esa to'rt bo'limni va to'rt ofisni o'z ichiga oladi. Bu yerda dekan bosh direktor vazifasini hamda tashqi biriktirilgan dekan esa ichki funksiyalarni bajaradi. Biriktirilgan dekan sakkizta yuqori darajadagi menedjrlarni ishini va kunlik jarayonlarni olib borishda menedjer vazifasida xizmat qiladi. Bosh dekan asosan tashqi ishlar ya'ni strategik loyihalar tuzish va hakorlik ishlari bilan shug'ullanadi.

Tadqiqot ishini qo'llab quvvatlovchi ofis(Research Support Office)ning asosiy faoliyati kutubxona va fakultetlar orasida grantlar va tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlikni ish olib borishdan iborat.

Tashkiliy ta'minot tarkibida bo'limlar va ofislar mavjud bo'lib, bo'limlar eng katta va to'liq kutubxona jarayonlarini va universitet o'quv bo'limlari monitoringini olib boorish vazifasini bajaradi. Ofislar bo'limlardan kichikroq bo'lib, kutubxonaning turli adminstrativ funksiyalari bilan shug'ullanadi. Bo'limlar va ofislar kutubxonachilar tomonidan boshqariladi.

Aholiga xizmat ko'rsatuvchi bo'lim(Public Services Division)

Bu bo'lim asosan tashqari(aholi, o'quvchilar va boshqa universitetlar)ga xizmat ko'rsatadi va kutubxonaning eng katta bo'limi bo'lib, kutubxona rivojining kaliti hisoblanadi. Bo'limning asosiy funksiyalari quyida keltirilgan ya'ni:

- Tadqiqot va o'quv ishlari bo'yicha xizmati ko'rsatish;
- Hukumat hujjatlari bilan shu'gullanish;
- Xalqaro kitob almashuv abonementi faoliyatini olib boorish va elektron axborot resurslarini masofadan yetkazib berish;
- Aholiga xizmat ko'rsatishda yangi innovatsion xizmatlarni tashkil qilish.

Kolleksiyalarni boshqaruv bo'limi

Ushbu yangi bo'lim Texas universiteti kutubxonasi fondida mavjud kolleksiyalarni boshqarish vashakllantirish strategiyasini olib borishga javobgar bo'lim hisoblanadi. Bu bo'limning asosiy funksiyalari quyidagi bo'limlar orqali bajariladi:

- Kolleksiyalarni shakllantirish;
- Kutubxona jarayonlari va axborot-resurslarini samarali yaratishda texnik xizmat ko'rsatish;
- Uzoq muddat davomida asrab boorish maqsadida kutubxona kolleksiyalarini saqlash;

Maxsus kutubxona bo'limi(Special Libraries Division)

Maxsus kutubxona bo'limi quyidagi kutubxona kolleksiyalarini o'z ichiga oladi:

- Tor doiradagi fan sohalariga oid kolleksiyalarni;
- Maxsus formatdagi kolleksiyalarni;
- Boshqa kutubxonalarda mavjud bo'lmagan yagona nusxaga ega bo'lgan kolleksiyalarni

Maxsus kutubxona bo'limining asosiy funksiyalari quyidagi bo'limlar tomonidan amalga oshiriladi:


- Texas universiteti kutubxonasining eng katta tarixiy musiqa bo'limi;
- O'quv guruhlar uchun maxsus xizmatlar va kolleksiyalarni taqdim etuvchi ixtiro parki bo'limi(Discovery Park Library);
- Boy arxiv fondi va noyob kitoblar kolleksiyasi bo'limi;
- Audiovisual media formatga ega kolleksiyalar media bo'limi;
- Yuqori sifatga ega axborot-resurslari kolleksiyasining mikroformalar bo'limi.

Raqamli kutubxona bo'limi

Raqamli kutubxona bo'limi tashqi aloqalar hamkorligida yangi innovatsion xizmatlarni va kolleksiyalarni yaratadi. Raqamli kutubxona bo'limi funksiyalari quyidagi bo'limlar tomonidan amalga oshiriladi:

- Multimedia rivojlantirish laboratoriyasini o'z ichiga olgan turli kutubxona onlayn tizimlaridan foydalanish maqsadida foydalanuvchi interfeysini va onlayn katalog yaratuvchi bo'lim;
- Uzoq tarixga ega holda tatbiq qilinayotgan raqamli loyihalar bo'lim;
- Kutubxona yangi innovatsion xizmatlarini va Texas universiteti kutubxonasining raqamli infrastrukturasini yaratish bilan shug'ullanuvchi raqamli kutubxonani rivojlantirish bo'limi.

Quyida ushbu loyiha asosida oliy ta'lim muassasalari elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini qayta shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan tashkiliy tuzilmasi keltirilgan bo'lib, mamlakatimiz miqyosida oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari elektron kutubxona yaratishda tashkiliy ta'minotni to'g'ri yaratish va shakllantirish yo'lida qo'llanilsa, axborot-kutubxona faoliyatida sezilarli natijalarga erishish mumkin (1.4-rasm).



1.4-rasm. Texas oliy ta'lim muassasasi elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Maskur dissertatsiyaning birinchi bobi elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot ishi davomida quyidagi masalalar tahlili amalga oshirildi:

- ✓ AQSh, Yevropa, Rossiya, Avstraliya kabi rivojlangan mamlakatlar va O'zbekiston Republikasida elektron kutubxona yaratish bosqichlari, muommolari va yechimlari, elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari tahlili ko'rib chiqildi;
- ✓ Chet el davlatlarining elektron kutubxonalari xarakteristikasini, tashkiliy ta'minot aspektlarini va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston Republikasida elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini yaratishga qaratilgan ishlar tahlili taqdim etildi;
- ✓ Kaliforniya elektron kutubxonasi, Chikago universiteti elektron kutubxonasi, Rossiya milliy kutubxonasi, Rossiya oliy ta'lim muassasalari elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotlarini yaratishning shakl va uslublari, boshqaruv faoliyati, bo'limlar va xizmatlar vazifalari tahlili o'rganib chiqildi;
- ✓ O'zbekiston Republikasida axborot-kutubxona muassasalarining asosiy vazifalari, axborot-kutubxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasalar tarmog'i tashkiliy tuzilmasining tahliliy natijalari asosida elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yaratishga qaratilgan ishlar Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi misolida keltirib o'tildi;
- ✓ Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yaratish texnologiyalari va uni ishlab chiqish masalalari bo'yicha Texas universiteti elektron kutubxonalarining tashkiliy ta'minotini qayta shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali optimal ishlab chiqilgan tashkiliy ta'minot loyihasi tahlili va yuqorida bajarilgan tahlillar asosida, elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minotini shakllantirish maqsadlari aniqlab olindi.

II bob. Elektron kutubxonaning tashkiliy ta'minotini shakllantirish

1. O'zbekiston Milliy kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan rivojlantirishni davom ettirish chora tadbirlari to'g'risida" 2011 yil 23 fevraldagi PQ-1487- sonly qarorini[3] bajarish yuzasidan Vazirlar mahkamasi qarori tarkibida elektron kutubxona to'g'risida namunaviy nizom ishlab chiqilgan bo'lib, elektron kutubxonaning vazifalari va funksiyalari, axborot-kutubxona fondini shakllantirish, elektron kutubxona faoliyatini tashkil etish va shu kabi umumiy qoidalar belgilab o'tilgan. Ushbu namunaviy nizomga [4] ko'ra, elektron kutubxonaning asosiy vazifalari quyidagicha:


- Kitobxonlarga taqdim etish qiyin bo'lgan yoki cheklangan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- Faqat elektron shaklda mavjud bo'lgan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- Katta hajmli axborot bilan ishlashda foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratish;
- Ximat ko'rsatishning sifati va tezkorligini oshirish, foydalanuvchilarga Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari xizmatlari ro'yhatini kengaytirish;
- Kutubxona texnologiyalarini modernizatsiya qilish;
- Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini jahon makoniga integratsiyalash;
- Elektron axborot-kutubxona resurslarini uzoq muddat saqlash.

Mamlakatimiz miqyosida elektron kutubxonalar yaratishga kirishilgan bo'lishiga qaramay, ularning rivojlanish darajasi tashkiliy ta'minotni to'g'ri tashkil etilishi muhim sanaladi. Elektron kutubxonalarni shakllantirishda, rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishda uning tashkiliy ta'minoti, shakl

va uslublarini ishlab chiqish, O'zbekistonda mavjud axborot-kutubxona muassasalari boshqaruvi faoliyatini yengillashtirish, kutubxona jarayonlarini tez va sifatli amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, xodimlarning ish o'rinlari, vazifalarini to'g'ri taqsimlash va kutubxona ishini samarali tashkil etish axborot-kutubxona faoliyatining asosiy tashkiliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot resurs markazi (keyingi o'rinlarda Milliy kutubxona deb ataladi) O'zbekiston Respublikasida milliy va jahon madaniyatini, fan va ta'limni rivojlantirish manfaatlari yo'lida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi umumdavlat universal axborot-kutubxona muassasasi hisoblanadi.

Milliy kutubxona o'zining avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi (AIBS) ga ega bo'lib, umumiy fondi 6,9 mln axborot resurlarini tashkil etadi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Milliy kutubxona umumiy fondi tarkibi (raqamlar mingda keltirilgan).


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi - axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 20 martdagi PQ-1729-son qarorini[6] amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi vazirlar mahkamasining qaroriga ko'ra, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot resurs markazining xodimlarning cheklangan soni 136 nafar, shu jumladan boshqaruv

xodimlari 10 nafar bo'lgan yangilangan tashkiliy tuzilmasi (4-ilova) ishlab chiqildi.

Milliy kutubxona o'zida jahon axborot-kutubxona faoliyati bilan bog'liq xalqaro standartlarga mos ravishda yaratilgan axborotlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi(AIBS) yordamida elektron kutubxona yaratmoqda. Ushbu elektron kutubxona yaratish jarayonida kutubxonada mavjud xizmatlar, ularga yuklatilgan vazifalar va jarayonlar ketma-ketligini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim tashkiliy masala hisoblanadi. Bugungi kunda milliy kutubxonada elektron kutubxona yaratish tashkiliy ta'minotining holati quyidagicha tashkil etilgan (2.2-rasm).

Elektron kutubxona(Web-AIBS) - ma'lumotlar bazasi kutubxona fondida mavjud barcha hujjatlarning elektron katalogi va to'liq matnli ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari foydalanuvchi o'ziga kerakli hujjatni elektron shakliga ega bo'lishida elektron kutubxona(Web-AIBS) Ziyonet axborot tarmo'gi, Fanlar Akademiyasi kutubxonasi, Ilmiy-tibbiyot, kutubxonasi, Ilmiy-pedagogika kutubxonasi, Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazi hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti axborot-resurs markazi elektron kutubxona ma'lumotlar bazasidan qidirish imkonini beradi (5-ilova).

Milliy kutubxonaning elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yaratishda asosan kutubxona direktori, direktorning axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish bo'yicha o'rinbosari, direktorning axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish bo'yicha o'rinbosari, kadrlar bo'yicha mutaxassis, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy axborot-kutubxona fondlariga ulanish xizmati bo'limi xodimlari, axborot-kutubxona fondlarini komplektlash xizmati, kataloglashtirish va turkumlashtirish xizmati xodimlarining bajaradigan vazifalari muhim rol o'ynaydi (2.1-jadval). Bir qancha rivojlangan milliy kutubxonalar tashkiliy ta'minotlarining tahliliy natijalariga ko'ra, milliy kutubxona tashkiliy ta'minotini shakllantirish maqsadida yangi xizmatlar tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Milliy kutubxonasida elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini shakllantirish bo'yicha takliflar

Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini shakllantirishda xodimlarning lavozim

№	Lavozim	Lavozim vazifalari
1.	Direktor	Xizmat ko'rsatish bo'yicha umumiy jarayonlarga boshchilik qiladi. Foydalanuvchilarni registratsiya qilish, buyurtmalarni qabul qilish, axborot-resurslarini qidirish, kitob saqlash xizmatidan kafedralar orqali resurlarni yetkazib berish kabi umumiy axborot-kutubxona xizmatlarini, nashriyotchilik ishlari, masofadan turib hujjatlarni yetkazib berish, axborot texnologiyalari, shuningdek, moliya-xo'jalik ishlarining faoliyatini boshqaradi.
2.	Direktorning axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish bo'yicha o'rinbosari	Kutubxona komplektlash va kataloglashtirish hamda bosma resurslarni skaynerlash va raqamlashtirish xizmatlari ishlarini nazorat qiladi va monitoringini olib boradi.
3.	Direktorning axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish bo'yicha o'rinbosari	Axborot-kutubxona xizmatlari monitoringini olib boradi va nazorat qiladi. Masofadan turib hujjatlarni yetkazib berishda fondlarni saqlash va dispetchirlik xizmati faoliyatini boshqaradi. Tashqi aloqalar va chet el tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.
4.	Kadrlar bo'yicha bosh mutaxassis	Mavjudshatlartarkibigako'rabuyruqlartayyorlaydi. Xodimlar faoliyati bilan bog'liq arizalarni shakllantiradi. Xodimlarning qayta tayyorlash bo'cha kurslarni tashkillashtiradi.
5.	Axborot-kommunikatsiyateknologiyalarivaxorijiya xborot-kutubxonafondlarigulanishxizmatirahbari	Kutubxonadakompyuterlartexnikalarivadasturiyta'minotlar initashkillashtiradi. 220 tafoydalanuvchilarkompyuteri, 10 tainfokiosk, 10 taskaynervakserokopiyalarninazoratqiladi. Xalqaroma'lumotlarbazasigakirishimkoniyatiniyaratadi, texnikloyihalarnitadbioletishishlaribilanshug'ullanadi.
6.	Axborot-kommunikatsiyateknologiyalarivaxorijiya xborot-kutubxonafondlarigulanishxizmatiyetakc himutaxassisi	Tarmoq infrastrukturasini monitoringini olib boradi. Internet tarmog'iga kirishni ta'minlaydi. Elektron pochta va masofadan turib hujjatlarni jo'natish xizmatlarini bajaradi. AKAT tizimining ma'lumotla bazasini shakllantiradi. Elektron kutubxona, noyob adabiyotlar, onlayn dissertatsiyalar tizimi xizmatlarni shakllantiradi.

yo'riqnomalari

2. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarining elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Axborot-resurs markazlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida» gi 2006 yil 20 iyundagi PQ-381-sonli qarori[1] asosida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tarkibida tashkil etilgan axborot-resurs markazlari faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006 yil 29 dekabr 295-sonli buyrug'iga[7] asosan, kasb-hunar ta'lim muassasalari direktorlariga:

- Ta'lim muassasa kutubxonasi nomini o'rnatilgan tartibda axborot-resurs markazi deb o'zgartirish;
- Kutubxonaning mavjud shtatlari va ish haqi fondi doirasida uning axborot-resurs markaziga aylantirilishi va elektron resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishga qulaylik yaratilishi bilan bog'liq, kutubxona tuzilmasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish;
- Axborot-resurs markazini vazirlik tomonidan tavsiya etilgan namunaviy jihozlash tartibiga muvofiq kompyuter va orgtexnikalar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan.

Yuqoridagi buyruqqa asoslangan holda Oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarining namunaviy shtatlar jadvali (2.2-jadval)ga muvofiq ishlab chiqilgan. Shu jumladan Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlarida ish haqqi shtatlar kategoriyasi va guruhlar ko'rsatgichiga qarab tayinlanadi. (2.2-jadval).


Axborot-resurs markazlarida shtatlar kategoriyasi hamda guruhlar ko'rsatgichi foydalanuvchilar soni va yil davomida xizmat ko'rsatilgan foydalanuvchilarga berilgan adabiyotlar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Hozirgi kunga kelib, respublikamiz bo'yicha oliy ta'lim muassasalari 75ta, ulardan universitetlar 19ta, institutlar 37 ta, akademiyalar 2ta, filiallar 11ta, chet el OTM filiallari esa 6 tani tashkil etgan bo'lib [25], barcha oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari quyidagi tashkiliy tuzilma [7] asosida tashkil etiladi va shakllantiriladi. Oliy ta'lim qoshidagi axborot-resurs markazlari o'z faoliyatini olib borishda ularga Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazi metodik markaz sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, barcha oliy o'quv yurti tarkibidagi axborot-resurs markazlari xodimlari uchun malaka talablari hamda lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqadi.

Kategoriya	ARM xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchilar soni (ming)	Yil davomida ARM xizmati, berilgan adabiyotlar soni(ming nusxa)
I	30 dan ortiq	400 dan ortiq
II	30 gacha	400 gacha

Shtatlar guruhi	ARM xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchilar soni (ming)	Yil davomida ARM xizmati, berilgan adabiyotlar soni(ming nusxa)
I	60 dan ortiq	600 dan ortiq
II	30-60	600-400
III	15-30	400-200
IV	15 gacha	200 gacha

2.3-jadval.ARM shtatlari kategoriyasi va guruhi



2.4-rasm.Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlariga tegishli shtatlar tashkiliy tuzilmasi

Yuqoridagi Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlariga tegishli shtatlar tashkiliy ta'minoti tahlilidan kelib chiqib, ushbu tashkiliy ta'minotga to'liq mos keluvchi Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti axborot-resurs markazida elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minotining hozirgi holati, shakl va uslublari misolida ko'rish mumkin.

Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti axborot-resurs markazi-ARM (2007 yilgacha Universitet kutubxonasi) 1955 yilda tashkil etilgan [27].



Yil mobaynida kutubxona 7 ming kitob oladi, 100 nomli jurnallar va 65 nomli gazetalarga obuna bo'ladi. Elektron kutubxona 11135 ta to'liq matnlar ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi. 2001 yil universitet Elektron kutubxona yaratishni boshladi.

Hozirda elektron kutubxonada ARMAT(axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi)-tizimi joriy qilindi. Hozirgi kunda axborot-resurs markazining elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti (2.4-rasm) dako'rsatilgandek shakllantirilgan. Universitet elektron kutubxonasi VPN tarmoq orqali viloyatlardagi 5ta filiali, Respublika axborot-kutubxona markazi va Milliy kutubxona ma'lumotlar bazasiga ulangan (6-ilova).


Axborot-resurs markazi foydalanuvchilar va ularga adabiyotlar berish bo'yicha ARM shtatlari guruhining 3-guruhiga kiradi. Har bir bo'lim hamda xodimlarga tegishli lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular bo'lim boshlig'i va axborot-resurs markazi direktori tomonidan nazorat qilinadi.

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti axborot-resurs markazi elektron kutubxonasini yaratishda axborot-resurs markazining quyidagi bo'limlari ishtirok etadi (2.4-rasm).

ARM tashkiliy ta'minotini shakllantirish, foydalanuvchilar uchun yangi turdagi xizmatlar tashkil qilish maqsadida, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarining elektron kutubxonasini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlili asosida takliflar ishlab chiqildi (2.5-rasm) va lavozim yo'riqnomalari tayyorlandi (2.4-jadval).



2.4-rasm.Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlariga tegishli shtatlar tashkiliy tuzilmasi holati



2.5-rasm. Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti axborot-resurs markazining tashkiliy ta'minotini shakllantirish bo'yicha takliflar

TATU axborot-resurs markazining elektron kutubxonasini shakllantirishda
xodimlarning lavozim yo'riqnomalari

№	Lavozim	Lavozim vazifalari
1.	ARM direktori	Xizmat ko'rsatish bo'yicha umumiy jarayonlarga boshchilik qiladi. Foydalanuvchilarni ARMga a'zo qilishni, buyurtmalarni qabul qilish, axborot-resurslarini qidirish, adaiyotlar bo'limlari orqali resurlarni yetkazib berish kabi umumiy axborot-kutubxona xizmatlarini, nashriyotchilik ishlari, axborot texnologiyalari, shuningdek, elektron kutubxona ma'lumotlar bazsini yaratish bilan bog'liq faoliyatlarni boshqaradi.
2.	Direktor o'rinbosari	ARMdaishyuritishhamdaxo'jalikishlaribilanshug'ullanadi. Kutuxonajarayonlariniavtomatlashtirishuchuntexnikalarbilanta'minlashni, axborot-kutubxonafondinisaqlash, restavratsiyavakonservatsiyaishlarininazoratqiladi, mehnathuquqini, texnikaxavfsizligini, yong'inxavfsizligini, xodimlarishvaqtininazoratqiladi.
3.	Komplektlash va kataloglashtirish bo'limi yetakchi bibliografi	Hujjatlarga dastlabki bibliografik ishlov berish (inventar raqam berish, qabul qilingan kitoblar soni va ularning qaysi bo'limga berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimga kiritadi. Hujjatlarning yillik hisobotini olib boradi.
4.	Ilmiy metodik bo'lim	Ma'lumot-bibliografik bo'lim ishini tashkillashtiradi. Ta'lim jarayoni bo'yicha bibliografik ko'rsatgichlarni, adabiyotlar ro'yxatini, tematik, adresli, va boshqa bibliografik ma'lumotlarni shakllantiradi, kitob ko'rgazmalarini tashkillashtiradi. Ma'lumot qidiruv apparatini yaratishni boshqaradi. Foydalanuvchilar tashrifini va kitob berish hisobotini olib boradi. Yangi kelgan hujjatlatni turkumlash va kataloglashtirish ishlarini bilan shug'ullanadi.
5.	Axborot-texnologiyalari bo'limi adminstratori	Elektronkutubxonayaratishbo'yichashug'ullanadi. Tizim havfsizligini ta'minlaydi. Har kvartalga tegishli statistik va yillik hisobotni olib boradi. Elektron kutubxona zallarining kompyuter texnikasini ishlash sharoitini ta'minlaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarining elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2013 yil 31 dekabrda "Axborot-resurs markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va yagona tarif setkasi bo'yicha lavozim razryadlari hamda guruhlar bo'yicha na'munaviy shtatlarini tasdiqlash haqida"gi 340-sonli buyrug'iga[8] ko'ra, hududiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarma boshliqlari hamda ta'lim muassasalari rahbarlariga quyidagi vazifalar:

- Na'munaviy shtatlar joriy qilinishi munosabati bilan axborot-resurs markazlari filiallari va xodimlari sonining qisqartirilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirish;
- Shtatlar jadvalini tasdiqlangan na'munaviy shtatlarga qat'iy amal qilgan holda moslashtirilishini ta'minlash yuklatilgan.


Axborot-resurs markazlarini guruhlarga ajratish mezonlari va tartiblari quyidagicha belgilangan[8], ya'ni:

- Axborot-resurs markazida bir yilda kitob va adabiyotlardan foydalanuvchilar soni 5 000 kishidan ortiq va ko'rsatilgan axborot-kutubxona xizmati bo'yicha berilgan hujjatlar soni 135 000 va undan ortiq nusxa bo'lsa, 1-guruh (2.6-rasm).
- Axborot-resurs markazida bir yilda kitob va adabiyotlardan foydalanuvchilar soni 2 500dan 5 000 kishigacha va ko'rsatilgan axborot-kutubxona xizmati bo'yicha berilgan hujjatlar soni 75 000 nusxadan 135 000 nusxagacha bo'lsa, 2-guruh (7-ilova).
- Axborot-resurs markazida bir yilda kitob va adabiyotlardan foydalanuvchilar soni 2 500 kishigacha va ko'rsatilgan axborot-kutubxona xizmati bo'yicha berilgan hujjatlar soni 75 000 nusxagacha bo'lsa, 3-guruh (8-ilova) hisoblanadi.

Axborot-resurs markazlari har yili o'tgan yil faoliyati davomida ko'rsatgan xizmatlaridan kelib chiqqan holda joriy yil uchun guruhlarga ajratiladi.

Bunda, ARMLarning guruhini belgilash uchun bir yilda haqiqatda ARM tomonidan xizmat ko'rsatilgan foydalanuvchilar soni, ularga berilgan hujjatlar, ko'rsatilgan axborot-kutubxona xizmatlari to'g'risidagi ko'rsatgichlari hududiy O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tasdiqlangan ko'rsatgich muassasaning harajatlar smetasi va shtatlar jadvalini hududiy moliya organlarida ro'yhatdan o'tkazishda ilova qilinadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida 1549ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 143 ta akademik litsey va 1 406 tasi kollejlarni tashkil qiladi[26].



2.6-rasm. O'rta maxsus va kasb hunar ta'limi muassasalari axborot-resurs markazlarida 1-guruhga tegishli shtatlar tashkiliy tuzilmasi

Yuqorida keltirib o'tilgan O'rta maxsus va kasb hunar ta'limi muassasalari axborot-resurs markazlari tashkiliy ta'minotlari tahlili asosida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutining (O'MKHTTKMO va UQTI) axborot-resurs markazini misol sifatida olish mumkin. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari uchun hamda institut xodimlari va kurs tinglovchilarini kerakli axborot bilan ta'minlash bo'yicha ilmiy, o'quv-metodik markaz vazifasini bajaradi[31] .


Axborot-resurs markazi 3 ta bo'limdan tashkil topgan bo'lib ularga:

- Axborot resurslarini qabul qilishi va fondlarni shakllantirish bo'limi;
- Bosma adabiyotlar va elektron axborot resurslari bo'limi;
- Elektron axborot-resurs texnologiyalari bo'limi.


Axborot-resurs markazining umumiy fondi **32000** nusxadan ortiq. Ushbu ARMda bir yilda kitob va adabiyotlardan foydalanuvchilar soni 5 000 kishidan ortiq va ko'rsatilgan axborot-kutubxona xizmati bo'yicha berilgan hujjatlar soni 135 000 va undan ortiq nusxani tashkil etishi sababli 1-guruh (2.6-rasm) shtatlar tashkiliy ta'minotiga asosan shakllantiriladi. Shunga ko'ra, elektron kutubxona yaratish tashkiliy ta'minoti, shakli va uslublari ishlab chiqiladi[31].

Bugungi kunda, axborot-resurs markazi ARMAT tizimi yordamida Respublikamizda mavjud barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari axborot-resurs markazlarining yi'g'ma elektron katalogi hamda to'liq matnlar ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, natijada esa korporativ elektron kutubxona yaratishni yo'lga qo'yimoqda (9-ilova).

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarni bajarishda elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini to'g'ri yo'lga qo'yish va uning shakl va uslublarni ishlab chiqish muhim sanaladi. ARM elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotining hozirgi holatidan (2.7-rasm) kelib chiqib, uni shakllantirish maqsadida quyidagi takliflar (2.8-rasm) ishlab chiqildi va lavozim yo'riqnomalari tayyorlandi (2.5-jadval).



2.7-rasm. O'rtamoxsus, kasb-hunarta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlarida elektron kutubxonayaratishning tashkiliy ta'minoti holati



2.8-rasm. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarida elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minotini shakllantirish bo'yicha shakllantirish bo'yicha takliflar

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ARMda elektron kutubxona yaratish xodimlarning lavozim yo'riqnomalari

№	Lavozim	Lavozim vazifalari
1.	Axborot-resurs markazi rahbari	Xizmat ko'rsatish bo'yicha umumiy jarayonlarga boshchilik qiladi. Foydalanuvchilarni ARMga a'zo qilishni, buyurtmalarni qabul qilish, axborot-resurslarini qidirish, adaiyotlar bo'limlari orqali resurlarni yetkazib berish kabi umumiy axborot-kutubxona xizmatlarini, nashriyotchilik ishlari, axborot texnologiyalari, shuningdek, elektron kutubxona ma'lumotlar bazasini yaratish bilan bog'liq faoliyatlarni boshqaradi.
2.	Axborot-resurslarini qabul qilish va fondlarni shakllantirish bo'limi	Axborot-resurs markazi kitob fondini qayta ishlash va jamlash, hujjatlarga dastlabki bibliografik ishlov berish (inventar raqam berish, qabul qilingan kitoblar soni va ularning qaysi bo'limga berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimga kiritish.ARMlar filiallariga va bo'limlariga metodik yordamni tashkil etadi. Yillik reja va hisobotlar tayyorlaydi.
3.	Bosma adabiyotlar va elektron axborot resurslari bo'limi	Axborot-resurs markazi kitob fondini qayta ishlash va jamlash, kataloglar tashkil etish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish xamda ilmiy-metodik va tadqiqot ishlarini tashkil etadi. Kitob fondidan foydalanishni tahlil qiladi, foydalanuvchilarning talablarini o'rganadi.
4.	Elektron axborot-resurs texnologiyalari bo'limi	ARMning elektron kutubxona ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Internet xizmatini yo'lga qo'yadi, boshqa axborot-resurs markazlari bilan elektron aloqani o'rnatadi. Tizim Administratori ma'lumotlar bazalarini boshqaradi. Bibliografik yozuvlar import/eksporti bilan shug'ullanadi. Tizim havfsizligini ta'minlaydi. Xodimlar malakasini oshirish bo'yicha kurslar tashkil etadi.

Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti

Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari ustidan umumiy tashkiliy-metodik rahbarlikni umumiy o'rta ta'im muassasalari kutubxonalari uchun tarmoq ilmiy-metodik markazi – Respublika ilmiy pedagogik kutubxonasi idoraga qarashli viloyat va tuman axborot-resurs markazlari tizimi orqali amalga oshiradi [1].

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 9mingdan ziyod maktab kutubxonalari mavjud bo'lib ulardan 1074 ta maktab ARMLari va 12 ta hududiy markaziy kutubxonlardan iborat. 200 tasi(100tadan shtat birligi) esa tuman ARMLari hisoblanadi [28]. Ular maktab rahbariga bo'ysunadi va aholiga xizmat ko'rsatadi.

“Umumiy o'rta ta'lim muassasalari tarkibida axborot-resurs markazlarini tashkil etish to'g'risida”gi namunaviy Nizomga ko'ra:

- Foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv va tarbiyaviy ish rejalari, dasturlari, axborot-resurs markazi ish rejasiga muvofiq amalga oshirilishi;
- Axborot-resurs markazlarida alohida ish zonalari: kompyuter zonasi, videoteka, fonoteka, kutubxona va bolalar burchagi ajratilishi;
- Axborot-resurs markazining ko'p funksiyali faoliyatini ta'minlash maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy maxsulotlar bilan ta'minlash hamda xizmat ko'rsatish turlarini yo'lga qo'yish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarini boshqarish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va umumta'lim muassasasi ustavi va yuqorida aytib o'tilgan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Axborot-resurs markaziga rahbarlik va uning faoliyati ustidan nazorat ishlarini umumta'lim muassasasi direktori amalga oshiradi. Axborot-resurs markazi mudiri esa o'z vakolati doirasida ta'lim oluvchilar hamda direktor oldida funksional

majburiyatlari, malaka talablari va umumta'lim muassasasi ustaviga muvofiq ravishda ARM faoliyatining tashkil etilishi uchun javobgar hisoblanadi.


Axborot-resurs markaziga lavozim bo'yicha malakaviy tavsif talablariga mos keladigan, kasb-xunar-kutubxonachilik malakasiga ega shaxslar ishga qabul qilinadilar. Shuningdek, pedagogik ma'lumotga va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron axborot-resurslari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan kishilar ham ishga olinishi mumkin. Axborot-resurs markazi xodimlarining soni belgilangan tartibda umumta'lim muassasalari kutubxonalarining namunaviy tashkiliy shtatlar tuzilmasiga binoan Ya'ni quyidagi tartibdashakllantiriladi:

- 20 ta sinf bo'lsa, 0,5;
- 30 ta sinf bo'lsa, 1;
- 40 ta sinf bo'lsa, 1,5;
- 50 ta sinf bo'lsa, 2 stavka kutubxonachi lavozimi belgilanadi (2.9-rasm).


Respublika bo'yicha 200ta tuman axborot-resurs markazlari mavjud bo'lib, ular to'g'ridan to'g'ri umumta'lim muassasalari axborot-resurs markazlariga biriktiriladi. Tuman ARMLari o'z faoliyat doirasida aholiga xizmat ko'rsatadi va axborot-resurs markazi biriktirilgan umumta'lim muassasi rahbariga bo'ysunadi (10-ilova).

Tuman axborot-resurs markazlari xodimlarining shtatlar guruhi umumta'lim foydalanuvchilar sonidan kelib chiqib belgilanadi (11-ilova). Bugungi kunda shtatlar tashkiliy tuzilmasi 9 ta lavozim ish o'rnini o'z ichiga olib, yangi axborot texnologiyalarini tadbiq qiluvchi direktor o'rinbosari va unga qarashli 4 ta bo'limdan iborat (10-ilova).

Yuqorida bajarilgan ishlar natijasidan kelib chiqib, Xalq ta'limi muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot-kutubxonasi tizimi yordamida axborot-resurs markazlarining yig'ma elektron katalogini shakllantirish va ularning korporativ tarmog'ini yaratish ARM xodimlari ishining samaradorligini oshiradi hamda foydalanuvchilarga tez va sifatli xizmat ko'rsatadi(2.10-rasm).



2.9-rasm.Xalq ta'limi muassalarining axborot-kutubxona markazlari tashkiliy ta'minoti



2.10-rasm. Xalq ta'limi muassasalarining ARMLari elektron kutubxona tarmog'ining tashkiliy ta'minotini shakllantirish bo'yicha takliflar


Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasini yaratish misolida tashkiliy ta'minotning ahamiyati

Yuqorida keltirilgan vazifalarni hisobga olgan holda, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini yaratishda axborot kutubxona muassasalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalarining hamda elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti katta ro'l o'ynaydi.

Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutining (O'MKHTTKMO va UQTI) axborot-resurs markazida va axborot resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (ARMAT-U) yordamida amalga oshirildi. Ushbu tizim MARC21 formati asosida yaratilgan bo'lib, tizim axborotlarni AKAT bazasiga kiritishda va ularni tarmoq bo'yicha uzatishda xalqaro kutubxona-bibliografik va kommunikativ formatlarni, tasniflash tizimlari hamda kodlashtirish qoidalarini (KBK, O'DK, UNIMARC, MARC21, USMARC va boshqalarni) qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa o'z navbatida boshqa tizimlardan bibliografik yozuvlarni ko'chirib olish va jahon axborot-kutubxona tarmog'i bilan integrallashuviga imkoniyat yaratadi[15].

Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish umumiy algoritmi (2.11-rasm) ishlab chiqildi. Ushbu umumiy algoritmi asosida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti(O'MKHTTKMO va UQTI) axborot-resurs markazining quyidagi bo'lim xodimlari tomonidan shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasi shakllantirildi:

- Axborot-resurs markazi rahbari;
- Axborot-resurslarini qabul qilish va fondlarni shakllantirish bo'limi boshlig'i va 1-toifali mutaxassis;
- Elektron axborot-resurs texnologiyalari bo'limi boshlig'i, yetakchi mutaxassis va 1-toifali muhandis-dasturchi.



2.11-rasm. Zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini yaratish umumiy algoritmi

II bobbo'yicha xulosa

Maskur tadqiqot ishining ikkinchi bobi elektron kutubxonaning tashkiliy ta'minoti, shakl va uslublarini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:


- ✓ O'zbekiston Milliy kutubxonasining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv faoliyati, xizmatlar tarkibi, fondi shuningdek, Elektron kutubxonaning asosiy vazifalarini to'liq bajarish maqsadida, elektron kutubxona yaratishning tashkiliy ta'minoti, jarayonlar ketma-ketligining hozirgi holati o'rganildi. Chet el mamlakatlari elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlari, shakl va uslublarini shakllantirishdagi tajribasiga asoslangan holda yangi xizmatlar, ushbu xizmatlarga tegishli lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqildi.
- ✓ Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar, Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari tashkiliy va shtatlar tuzilmasi Respublika miqyosida o'rganib chiqildi. Oliy ta'lim muassasalari orasida Axborot Texnologiyalari Univeriteti axborot-resurs markazi tarkibi, fondi, bo'limlar tashkiliy tuzilmasi hamda elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minoti holati tahliliga ko'ra, universitet professor, o'qituvchi, talabalar hamda magistrlar uchun yanada samarali xizmat ko'rsatish maqsadida elektron kutubxona tashkiliy ta'minotini yangi bo'limlarni ochish orqali shakllantirish takliflari berib o'tildi.
- ✓ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarining 3 guruhga tegishli shtatlar tashkiliy tuzilmasi, ularni shakllantirish masalalari, boshqaruv faoliyati, bo'lim xodimlari lavozim yo'riqnomalari, shuningdek elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti holati o'rganib chiqildi. Natijada bo'limlar tarkibiga o'zgartirishlar kiritish va yangi lavozim yo'riqnomalari takliflari ishlab chiqildi.
- ✓ Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari va axborot-kutubxona markazlari tarkibi, hududiy markaziy kutubxonalar hamda tuman axborot-resurs markazlari shtatlar tashkiliy tuzilmasi ko'rib chiqildi. Xalq


ta'limi muassasalari qoshidagi axborot-resurs markazlari o'zining elektron kutubxonasini yaratishning tashkiliy ta'minoti shakllarini ishlab chiqish, keyingi bosqichda esa Respublika miqyosida maktab ARM va AKMlarining korporativ yig'ma elektron katalogini yaratish g'oyalari taklif qilindi;

- ✓ To'g'ri tashkil etilgan elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti asosida zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini shakllantirishning umumiy algoritmi berildi. Ushbu umumiy algoritm asosida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti (O'MKHTTKMO va UQTI) axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasi yaratildi.

III bob. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vosita sifatida

1. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini yaratish algoritmirlari






3.1-rasm. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini yaratish
algoritmhlari

2. Dasturiy vositaning funktsional tuzilishi va masalalar sxemasi

Funksionalstruktura -inglizcha (functional structure) so'zdanolinganbo'lib, faoliyatjarayonlariningfuknsional elementlariorasidagialoqaniaksettiruvchi deganma'nonianglatadi.

Dasturiy vosita funktsionaltuzilishidegandatizimtarkibiyqism (tizimosti) laribajaradiganfunksiyalarningbir-biribilan uzviy bog'langanholdabirmaqsadgayo'naltirilganligitushuniladi.

Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasi funktsional strukturasiquyidagicha(3.2-rasm):



3.2-rasm. Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasi funktsional strukturasini

Ma'lumotlarni shakllantirish - ma'lumotlarni manbadan qabul qilish va elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti sxemalarini dasturiy vositaga kiritish uchun tayyorlashga mo'ljallangan.

Uning funksiyasi mavjud bo'lgan va shakllantirilgan elektron kutubxona tashkiliy ta'minotlarini dasturiy vositaga uzatishdan iborat.

1. Ma'lumotlarni kiritish tizim osti – axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotlarini belgilash va tanlashga xizmat qiladi. Bu tizim ostining tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) dasturiy ta'minot interfeysini yaratish;
- b) tashkiliy ta'minot ma'lumotlar bazasi yaratish;
- c) tashkiliy ta'minotlarga tegishli lavozim yo'riqnomalari ma'lumotlar bazasini yaratish.

2. Boshqaruv tizim osti – tashkiliy ta'minot dasturiy vositasini boshqaradi va qolgan tizim ostilar ishini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, dasturiy vosita bilan foydalanuvchilar orasidagi o'zaro aloqani yo'lga qo'yadi.

3. Ma'lumotlarni chiqarish tizim osti - foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan so'rovlarni bajarish vazifasini bajaradi. Bu tizim osti “*Qidirish*” va “*Statistika*” tizim ostilari bilan bevosita bog'langan bo'ladi. So'rov bo'yicha ma'lumot foydalanuvchi interfeysiga yuboriladi.


Tashkiliy ta'minot dasturiy vositasining masalalar sxemasi

№	Masala kodi	Masala nomi	Masalaning maqsadi	Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
1	2	3	4	5	6
1. Ma'lumotlarni kiritish tizim osti					
1.	1001	Dasturiy vosita interfeysini yaratish	Dasturiy vositadan foydalanish uchun WEB-interfeys yaratish	Interfeys sxemasi, kodlari, shablon, tashkiliy struktura, HTML, CSS, PHP, AJAX	Dasturiy vosita interfeysi
2.	1002	Tashkiliy ta'minot ma'lumotlar bazasini yaratish	Axborot-kutubxona muassalari elektron kutubxonasi uchun mos tashkiliy ta'minotni shakllantirish	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minot sxemalari	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minot ma'lumotlar bazasi
	1003	Lavozim yo'riqnomalari ma'lumotlar bazasi	AKMlar elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotiga mos lavozim yo'riqnomalarini tanlab berish	Lavozim yo'riqnomalari	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotiga mos lavozim yo'riqnomalari
2. Boshqarish tizim osti					

3.	2001	AKMlar elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotini tanlash	Axborot-kutubxona muassalari elektron kutubxonasi uchun mos tashkiliy ta'minotni tanlash	Axborot-kutubxona muassalari fondi va foydalanuvchilar soni	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti
4.	2002	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti shaklini tanlash	Axborot-kutubxona muassalari elektron kutubxonasi uchun mos tashkiliy ta'minot shaklini tanlash	AKMlar elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotlari	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti
3. Malumotlar chiqarish tizim osti					
5.	3001	Tashkiliy ta'minotni chiqarish	AKMlar elektron kutubxonasiga mos tashkiliy ta'minot shaklini tanlab berish	Tashkiliy ta'minotni tanlash	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti
	3002	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti lavozim yo'riqnomalari	AKMlar elektron kutubxonasi tashkiliy ta'minotiga mos lavozim yo'riqnomalarini chiqarib berish	Tashkiliy ta'minot	Elektron kutubxona tashkiliy ta'minotiga mos lavozim yo'riqnomalarini chiqarib berish


3. Dasturiyvositadan foydalanish qo'llanmasi

Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasi <http://ts.vocedu.uz> saytiga joylashtirilgan. Uni ochish uchun kompyuteringizdan Internet orqali shu manzilga kiring (3.3-rasm).



3.3-rasm. Brauzerdan <http://ts.vocedu.uz> saytiga o'tish.


Dasturning asosiy sahifasi ekranga chiqadi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Dasturning bosh sahifasi.

Dasturning menyusi quyidagilar (3.5-rasm):

- Bosh sahifa;
- Tashkiliy strukturalar;
- Dastur haqida;
- Murojaat uchun.




3.5-rasm.Dastur menyusi.

Bosh sahifada tashkiliy strukturani tanlash menyusi mavjud (3.6-rasm).


Unda quyidagi muassasa turlarini tanlash mumkin:

- Milliy kutubxona;
- Oliy o'quv yurtlari ARMLari;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ARMLari;
- Xalq ta'limi muassasalari ARMLari.



3.6-rasm.Muassasalarni tanlash.

Muassasani tanlaganingizdan so'ng, dastur avtomatik tarzda keyingi bosqichga o'tadi.Bunda tanlangan muassasaning xususiyatidan kelib chiqqan holda tashkiliy strukturani taklif qiladi.Masalan, Milliy kutubxona uchun dastur tashkiliy strukturalar variantlarini taklif qiladi (3.7-rasm). Qolgan uch muassasalar uchun dastur ularning xususiyatlari (fondi, foydalanuvchilar soni, o'quv sinflari soni va h.k.) ni aniqlashtirishni so'raydi. Shundan keyingina, ular uchun tashkiliy strukturalar variantlarini taqdim etadi.Barcha tashkiliy strukturalarni bosh menyu orqali ham ko'rish mumkin.




3.7-rasm.Milliy kutubxona uchun tashkiliy strukturani tanlash.

Tashkiliy struktura variantini ko'rish uchun tanlangan variant tugmasiga bosing (3.8-rasm).



3.8-rasm. Tashkiliy strukturani ko'rish tugmasi.

Shundan keyin, tashkiliy struktura sxemasi sahifasi ochiladi (3.9-, 3.10-rasmlar). Sxemaning ustiga sichqoncha bilan bossangiz, uning uchun lavozim yo'riqnomalarini yuklab olishingiz mumkin.



3.9-rasm. Milliy kutubxona tashkiliy strukturasi.

III bob bo'yicha xulosa

Mazkur tadqiqot ishining amaliy natijasi sifatida ushbu bob electron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, dasturiy vositani yaratishda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ✓ Elektron kutubxona tashkiliy ta'minoti dasturiy vositasini yaratish algoritmlari ishlab chiqildi;
- ✓ Dasturiy vositaning funktsional tuzilishi yaratildi va tizim osti masalalar sxemasi jadvali kengaytirilgan ko'rinishda yoritib berildi;
- ✓ Ushbu dasturiy vosita axborot-kutubxona muassasalari electron kutubxonasi uchun tashkiliy ta'minot shakllarini tanlab olishga mo'ljallangan. Shuningdek, dasturiy vosita har bir tashkiliy ta'minotning o'ziga tegishli lavozim yo'riqnomalari ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi;
- ✓ Dasturiy vositani yaratishda qo'llanilgan dasturlash tillari tasnifi va dasturiy vosita interfeysi, ishlash tartibi hamda foydalanuvchilar uchun ushbu dasturiy vositadan foydalanish qo'llanmasi keltirildi.

Ishlab chiqilgan dasturiy vositadan axborot-kutubxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodimlar, professor - o'qituvchilar, talabalar, magistrlar o'zlarining ilmiy ishlarida, ayniqsa, axborot-kutubxona muassasalari xodimlari electron kutubxona jarayonlarini shakllantirishda samarali foydalanishlari mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot ishi davomida belgilangan maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasida elektron kutubxona yaratish bosqichlari, muommolari va yechimlarini hal qilish hamda xodimlar ishini to'g'ri tashkil qilish maqsadida AQSh, Yevropa, Rossiya, Avstraliya kabi rivojlangan mamlakatlar elektron kutubxonasining tashkiliy ta'minotlarini shakllantirish usullari tahlili o'rganib chiqildi.
- ✓ Milliy kutubxona, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar, Xalq ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlari tarkibi, fondi, tashkiliy va shtatlar tuzilmasi, elektron kutubxonalar tashkiliy ta'minotining holati Respublika miqyosida o'rganildi. Natijada elektron kutubxonalar tashkiliy ta'minotiga o'zgartirishlar kiritish, innovatsion xizmatlar tashkil qilish va yangi lavozim yo'riqnomalari takliflari ishlab chiqildi. Shuningdek, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasini yaratish misolida tashkiliy ta'minotning ahamiyati yoritib berildi.
- ✓ Axborot-kutubxona muassasalari elektron kutubxonasi va xodimlari uchun tashkiliy ta'minot shakllarini tanlab olishga hamda lavozim yo'riqnomalari bilan tanishib chiqishga imkon yaratuvchi tashkiliy ta'minot dasturiy vositasi ishlab chiqildi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, mazkur ishlab chiqilgan tashkiliy ta'minot, shakl va uslublaridan amaliy qo'llanma sifatida elektron kutubxona yaratuvchi axborot-kutubxona muassasalari xodimlari, tegishli bo'limlar mutaxassislari, oliy o'quv yurtlari kafedralari elektron kutubxonasini shakllantirishda professor, o'qituvchi va magistrlar foydalanishlari mumkin. Shuningdek, zamonaviy shoirlarning elektron kutubxonasi ma'lumotlar bazasi keng foydalanuvchilar ommasiga tarmoq orqali taqdim etilishi axborot-kutubxona faoliyati yo'lida samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-sonli qarori.
2. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011 yil 13 aprel. //Xalq so'zi. - 2011. - 13 aprel.
3. "2011-2015 yillarda axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va aborot resurslar bilan xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2011 yil 23 fevr. PQ -I487.
4. "Elektron kutubxona to'g'risidagi namunaviy nizomni hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to'liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja-jadvalini tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 iyuldagi 198-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002- yil 20- fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi № UP-3029 sonli farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi - axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 20 martdagi PQ-1729-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006 yil 29 dekabr 295-sonli buyrug'i.
8. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazining 2013 yil 31 dekabrda "Axborot-resurs markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va yagona tarif setkasi bo'yicha lavozim razryadlari hamda guruhlar bo'yicha na'munaviy shtatlarini tastiqlash haqida"gi 340-sonli buyrug'i.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
- 10.Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning 2010- yil 27-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi vaSenatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – 2010. – 28-yanv.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

- 11.Рахматуллаев М.А. Информационные технологии в библиотеках. Методическое пособие по разработке проектов с использованием новых информационных технологий. Монография. Ташкент. 2003. изд. Национальная библиотека Узбекистана.с.272
- 12.Karimov U. F., Rahmatullayev M. A. Elektron kutubxona: yaratish texnologiyasi va resurslaridan foydalanish / U. F. Karimov, M. A. Rahmatullayev; mas'ul muharrir A. O. Umarov .- Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.- 2010.- 136 b.
- 13.Karimov U. F., Rahmatullayev M. A., Islomova H. E. Korporativ elektron kutubxona: yaratish texnologiyasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish / U. F. Karimov, M. A. Rahmatullayev, H. E. Islomova; masul muharrir A. O. Umarov .- Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.- 2010.- 78 b.
- 14.Alimova A.M. Kutubxonashunoslik. Uslubiy qo‘llanma 1-qism.- Toshkent.:2008.-130 b.
- 15.Rahmatullayev M. A., Karimov U. F., Islomova H. E. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi elektron katalogi ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Uslubiy qo‘llanma.-Toshkent.:2012.-112 b.

16. Я.Л.Шрайберг. электронная информация и электронные ресурсы: Публикации и документы, фонды и библиотеки.-М,. 2007.-528 с.
- 17.Генеральный план развития и реконструкции российской национальной библиотеки 2005-2015 годы/Ответственный составитель Л.В. Куликова.-Санкт-Петербург.: 2007.- 207с.
- 18.Бургер И.П. Организационная структура вузовской библиотеки в условиях формирования информационного общества.- Новосибирск,. 2001.-21 с.
- 19.Halbert M., Hartman C. Library Organizational Structure Plan2010.-Texas.: University of North Texas Libraries.-2010.-31 p.
- 20.Marco De Rosa. Feasibility study for the creationof the digital library.-Italy.- 2012.-34 p.
- 21.Savanur K.P., Nagaraj M.N. Design and Implement of Digital Library: An Overview.- Bangalore.-2008.-12 p.
- 22.Shaburova N.N. Современные организационные формы научных исследований и подходы к их информационному обеспечению в ИФП СО РАН.- г. Новосибирск:Научная библиотека Института физики полупроводников Сибирского отделения Российской академии наук.- 2005.-6 с.

Internet saytlari


- 23.<http://edu.uz/> -O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi
- 24.<http://centr.markaz.uz/> - O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi markazi
- 25.<http://tuit.uz/> - Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti
- 26.<http://eduportal.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot-ta'lim portali
- 27.<http://cdlib.org/> - Kaliforniya elektron kutubxonasi
- 28.<http://lib.uchicago.edu/> - Chikago Universiteti kutubxonasi

29. <http://vocedu.uz/> - O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutining (O'MKHTTKMO va UQTI) axborot-resurs markazi
30. <http://natlib.uz/> - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi


Ilovalar

1-ilova


Kaliforniya elektron kutubxonasi tashkiliy tuzilmasi holati




2-ilova. Rossiya Milliy kutubxonasining tashkiliy tuzilmasi




2.1-ilova.Rossiya Milliy kutubxonasi ilmiy ishlar bo'yicha director o'rinbosariga qarashli tashkiliy tuzilma




**Rossiya Milliy kutubxonasi tashqi aloqalar bo'yicha o'rinbosariga
qarashli tashkiliy tuzilma**



2.4-ilova.Rossiya Milliy kutubxonasi kutubxona ishi va axborotlashtirish bo'yicha o'rinbosariga qarashli tashkiliy tuzilma




Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari tarmog'i tuzilmasi




Axborot-resurs va axborot kutubxona markazlarining umumiy soni-1187

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkiliy tuzilmasi




5-ilova.

Tarmoqfoydalanuvchilari




6-ilova.Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti elektron axborot-kutubxona tarmog'ining tashkiliy ta'minoti


Tarmoqfoidalanuvchilari




**O'rta maxsus va kasb hunar ta'limi muassasalari axborot-resurs
markazlarida 2-guruhga tegishli shtatlar tashkiliy ta'minoti**



**O'rta maxsus va kasb hunar ta'limi muassasalari axborot-resurs
markazlarida 3-guruhga tegishli shtatlar tashkiliy ta'minoti**




9-ilova.O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ARMda elektron kutubxona tarmog'ining tashkiliy ta'minoti



10-ilova

Tuman axborot-resurs markazlari shtatlar tashkiliy tuzilmasi



11-ilova

Tuman ARM shatatlari guruhi

Shtatlar guruhi	Xalq ta'lim markazlarining umumta'lim va ixtisoslashgan ta'limi foydalanuvchilar soni(ming)
III	30dan ortiq
IV	30 gacha